

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O‘RTA MAXSUS
TA’LIM VAZIRLIGI
NIZOMIY NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT PEDOGOGIKA
UNIVERSITETI
O‘ZBEK TILI VA ADABIYOTI FAKULTETI**

“Himoyaga tavsiya etilsin”

Fakultet dekani

___ f.f.n., dots. I. M. Azimov

“___” _____2013-yil

5141100 – O‘zbek tili va adabiyoti ta’lim yo‘nalishi IV kurs 402-
guruh talabasi Rahmatova Yulduz Shahobovnaning “ Fitratning
“ Nahv “ asari va gap bo‘laklari muammosi “ mavzusida yozilgan

BITIRUV MALAKAVIY ISHI

Ilmiy rahbar:

_____M. Saparniyozova,
O‘zbek tilshunosligi kafedrasini
mudiri, f.f.n., dots.

Taqrizchilar:

_____M. Rahmatov,
O‘zbek tilshunosligi kafedrasini
f.f.n.v. b.

_____Sh. Nabiyeva,
TTYSI qoshidagi 1-sonli AL
o‘zbek tili va adabiyoti o‘qituvchisi

“Himoyaga tavsiya etilsin”

O‘zbek tilshunosligi

kafedrasini mudiri,

f.f.n. _____ M. Saparniyazova

“___” _____2013-yil

TOSHKENT-2013

Mundarija.

Kirish. BMIning umumiy tavsifi

I bob . XX asrning 20-30-yillarida o‘zbek tilshunosligining shakllanishi va rivojlanishi

1.1. Ashurali Zohiriyning tilshunoslik merosi

1.2. Elbekning tilshunoslik merosi

1.3. Fitratning tilshunoslik merosi

II bob. Fitratning ”Nahv ” asarida gap bo‘laklari muammosi hamda bugungi o‘zbek tilshunosligida ushbu masala talqini.....

2.1. Fitratning ”Nahv” asarida bosh so‘zlar

2.2. Fitratning ”Nahv” asarida to‘ldirg‘ich so‘zlar

2.3. Bugungi o‘zbek tilshunosligida gap bo‘laklari muammosi

III bob. Ishning amaliyotga tatbiqi

3.1. Ta’lim bosqichlari dastur va darsliklarida gap bo‘laklari

3.2. Ochiq dars ishlanmasi

Xulosa

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

BMIning umumiy tavsifi

Mavzuning dolzarbligi. Istiqlol tufayli milliy o'zlik, milliy iftixor, milliy manaviyat, milliy an'analarimiz o'zining asl ma'nosiga, mazmun mundarijasiga, mohiyat va qadriyatiga ega bo'ldi. Tilimizni har tomonlama taraqqiy ettirish davlat siyosati darajasiga ko'tarildi, uning davlat tili maqomi yanada mustahkamlandi¹.

Prezident I. Karimov O'zbekiston mustaqilligining besh yilligi tantanasida shunday degan edi: "Mustaqillik o'zbek xalqiga o'z yurtida qadr-qimmatini, bo'y-bastini, o'z madaniyati va an'alarini, tili va ma'naviyatini qayta tiklab olishga, milliy g'urur va milliy tafakkur, vatanga muhabbat tuyg'ularini kamol toptirishga zamin tug'dirdi"². Chindan, milliy ma'naviy qadriyatlar mustaqillik yillarida haqiqiy hayotiy qudratga ega bo'ldi. Til milliy istiqlool mafkurasining ma'nbai sifatida xalqning milliy uyg'onishi, milliy o'zlikni anglashi, ma'naviy kamolotga erishuvida beqiyos va ulkan ahamiyatga ega. Zero, til millatning qalbi, uning mavjudligining asosiy belgisidir. Shu jihatdan qaraganda barcha zamonlarda xalqning asl farzandlari, ma'rifatparvar siymolar ona tilini millatga o'zligini anglatishga, uning qudratini, shon-shuhratini ko'tarishda tushkun va tutqun zamonlarda esa ruhiyatni omon saqlash, unga mayl kuch bag'ishlashda zo'r vosita deb bilganlar. Xususan, milliy uyg'onish davri bo'lib tarixga kirgan 20-asrning birinchi choragida ma'rifatparvar ziyolilar kishilarda milliy ruhni uyg'otishda, milliy ongni o'stirishda tilga g'oyat kata ahamiyat berdilar. Negaki, ular millatning mavjudligini tasdiqlaydigan bebaho javohir ona tili ekanligini chuqur anglaganlar. Bu davrda ijod qilgan yetuk tilshunoslardan biri Abdurauf Fitrat, Ashurali Zohiriy, Elbeklardir.

¹O'zbekiston Respublikasining "Davlat tili haqida" qonuni. O'z R Oliy majlisining axborotnomasi, -1995. N: 12.

²Karimov I.A. Yangicha fikrlash davr talabi. Ko'p jildlik. T: O'zbekiston, 1997. 5-j. 132-bet.

Fitrat o‘zbek ma’rifatparvarlarining ko‘pchiligi singari milliy uyg‘onish davri ijtimoiy-ma’naviy hayotining turli sohalarida faoliyat ko‘rsatdi. A.Fitrat yetuk tilshunos, adabiyotshunos, tarjimon sifatida taniqli edi. Ayniqsa, **Fitratning o‘zbek tilshunosligi tarixida eng katta xizmatlaridan biri uning o‘zbek tili milliy grammatikasiga asos solganligidir. O‘zbek tili qoidalari to‘g‘risida bir tajriba: Sarf (1-kitob) “Nahv”(2-kitob) kitoblarini yaratadi. Ma’lumki, ”Nahv”asari tilshunoslikning sintaksis bo‘limiga bag‘ishlangan. Bu asar keyinchalik sintaksis bo‘limini o‘rganishda asosiy poydevor bo‘lib xizmat qilgan.** Fitratning tilshunos sifatida lingvistik merosini o‘rganish va tahlil etish, ”Navh” asarining o‘zbek tilshunosligida tutgan o‘rni va uning bugungi kundagi ahamiyati dolzarb masalalardan biri bo‘lmog‘i kerak.

Muammoning o‘rganilganlikdarajasi. O‘zbek tilshunosligining shakllanishi va taraqqiy etishida D.Polivanov, K.K.Yudaxin, A.K.Borovkov, V.V.Reshetov, A.G‘ulomov, M.Asqarova, S.Mutalibov hamda 70-80-yillarda va undan keyin yetishib chiqqan olimlarning hissalarini kattadir.O‘tgan asrning 20-yillari o‘zbek tilshunosligi A.Nurmonov,B.O‘rinboyev, M.Qurbonova, T.M. Tog‘ayev, Sh.Bobomurodovlar tomonidan turli aspektlarda o‘rganilgan.Fitratning tilshunoslik merosini o‘rganishda M.Qurbonovaning o‘rni kattadir. Tadqiqotning maqsad va vazifalari: Tadqiqotning asosiy maqsadi XX asrning 20- yillarida yaratilgan o‘zbek tilshunosligini manbalarini o‘rganish va Fitratning “Nahv “ asarida sintaktik tizimning o‘ziga xosliklarini ochib berishdan iborat. Shundan kelib chiqqan holda tadqiqot oldiga quyidagi vazifalar qo‘yilgan:

- 20-yillarda o‘zbek tilshunosligining shakllanishi va rivojlanishida berilgan manbalarni aniqlash;
- 20- yillarda tilshunos olimlarning tilshunoslik merosini aniqlash;

- O'zbek tilshunosligining shakllanishi uchun asos bo'lgan ilmiy manbalarni tavsiflash;
- Fitratning "Nahv" asarida gap bo'laklarining izohlanishiga tavsif berish;
- O'zbek tili sintaksisida gap bo'laklarining yoritilishida o'sha davr an'analariга yangicha nazariy va amaliy yondashuvlarni aniqlash;
- O'zbek tili va nazariyasiga asos bo'lgan fikr va talqinlarga baho berish.

Tadqiqotning obyekti va predmeti. Tadqiqotning obyekti Fitratning "Nahv" asari bo'lib, bu asar orqali o'zbek tili sintaktik tizimining yoritilishi va izohlanishini tadqiq etish esa ishning predmeti hisoblanadi.

Tadqiqotning metodologik asoslari va metodlari. Tadqiqot ishida olamni dialektik bilish, muammoni analetik va sintetik ko'lamda umumlashtirish metodologik asos vazifasini bajardi. Shuningdek, tadqiqot 20- yillardagi til nazariyasi bilan bilan amaldagi lisoniy qoidalar muqoyasasida yoritildi, ya'ni o'rganilayotgan davr asarlarini tahlil qilishda zamonaviy tilshunoslik yutuqlariga tayanildi. Tahlil jarayonida o'zni-o'zni bilan tavsifiy, qiyosiy, qiyosiy-tarixiy metodlardan ham foydalanildi.

Tadqiqotning ilmiy va amaliy ahamiyati. Ushbu tadqiqot o'zbek tilshunosligining gap bo'laklari muammosiga bag'ishlandi. Tadqiqot materiallari o'zbek tili sintaktik tizimining shakllanishi va taraqqiyot bosqichlarini o'rganishda katta ahamiyatga ega. Shu bilan bir qatorda, gap bo'laklari yuzasidan dars ishlanmalarini yaratishda amaliy material sifatida xizmat qiladi, amaliy mashg'ulotlar o'tkazishda tadqiqot materiallaridan unumli foydalanish mumkin.

Tadqiqot natijalarining amaliyotga tatbiq qilinishi. BMI Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti O'zbek tilshunosligi kafedrasida yig'ilishida

muhokama qilinib, himoyaga tavsiya qilingan. Tadqiqot natijalari bo'yicha TTYSI qoshidagi 1-sonli akademik litseyda ochiq dars o'tkazildi.

BMIning ilmiy-tadqiqot ishlari rejasi bilan bog'liqligi. Mazkur tadqiqot Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti O'zbek tilshunosligi kafedrasining bitiruv malakaviy ishlar rejasi asosida amalga oshirilgan.

BMIning tuzilishi. Umumiy tavsif, kirish, uch bob, umumiy xulosalar, lug'at va adabiyotlar ro'yxatidan iborat.

I bob. XX asrning 20-30-yillarida o'zbek tilshunosligining shakllanishi va rivojlanishi

Fanimiz tarixidan ma'lumki, o'tgan asrning 30-yillarigacha bo'lgan o'zbek tilshunosligi o'rganilishi zarur va shart bo'lgan dolzarb muammolardan biridir. Istiqloлга qadar o'zbek tilshunosligi 40-yillarda shakllana boshlagan degan fikr ustivor bo'lib, 20-30-yillar o'zbek tilshunosligi deyarli inobatga olinmadi. Shuni ta'kidlash joizki, o'sha davrda, ya'ni, XIX asr oxiri – XX asr boshlarida Markaziy Osiyoda ziyolilar o'rtasida milliy o'z- o'zini anglash hissi kuchaydi. XVI asrdan boshlangan madaniy, ma'naviy inqiroz tufayli unitilar darajaga kelib qolgan boy madaniy va ma'naviy merosimizni tiklash, kishilar o'rtasida o'tmish madaniyatiga mehr- muhabbat hissini uyg'otish harakati boshlandi. Bu harakatning yalovbardori sifatida jadidchilik maydonga keldi.

Jadidlar taraqqiyotga erishishning bosh yo'li ma'rifat ekanini his qilganlari holda birinchi navbatda, yangi tipdagi maktablar ochish, zamonaviy oliy maktablar tashkil etish, dunyo yangiliklarini xalq o'rtasida tezroq targ'ib qilish, kishilarni

uyqudan uygʻotish uchun matbuotni rivojlantirish; taraqqiyotimizga toʻsiq boʻlayotgan illatlarni fosh qilish uchun teatr sanʼatini barpo etish, iqtidorli yoshlarni Ovruponing eng ilgʻor oliy oʻquv yurtlariga oʻqishga yuborish orqali milliy ongni shakllantirish, milliy gʻurur va iftixor tuygʻularini singdirishga urindilar.

Shu qatorda tilshunoslikka ham alohida eʼtibor berildi. Bu oʻrinda Behbudiy, Fitrat, Ashurali Zohiriy, Elbeklar alohida jonbozlik koʻrsatdilar. Vaholanki, oktabr toʻntarishidan keyingi dastlabki davrlarda Fitrat, Shokirjon Rahimiy, Elbek, Gʻozi Olim Yunusov va boshqa tilshunos olimlar oʻzbek tilshunosligining rivojiga katta hissa qoʻshishgan.³ Bular qatorida Ashurali Zohiriy alohida oʻrin egallaydi.

1.1. Ashurali Zohiriyning tilshunoslik merosi

Ashurali Zohiriy oʻzining qizgʻin ijtimoiy-siyosiy faoliyati, salmoqli ijodiy merosi bilan xalqimizning istiqloq yoʻlidagi kurashi yuksak madaniyati tarixida yorqin iz qoldirgan siymolardan biridir. U oʻz davrining ilgʻor hodisasi sanalgan jadid ijtimoiy harakatchiligining yetakchilaridan edi.

Uygʻonish davri maʼrifatparvar ziyolilari hayot taqozosi bilan ijtimoiy-maʼnaviy hayotning turli sohalarida ish olib borganlar. Ular ayni paytda pedagog olim, yozuvchi- shoir, journalist–noshir va yana boshqa sohalarda faoliyat koʻrsatganlar. A.Zohiriy ham bundan mustasno emas. Olim oʻz ilmiy maʼrifiy, publistik faoliyati bilan oʻzbek xalqi madaniyati tarixida munosib oʻrin tutadi.

Olimning maʼrifatparvarlik sohasidagi dastlabki ishi sifatida S.Oqoyev bilan hamkorlikda turkiyzabon maktablarning boshlangʻich sinf oʻquvchilari uchun tuzgan “Turkiyxrestomatiya yoxud terma kitob” (QoʻqonShumakovtipolitografiyasi) darsligini koʻrsatish mumkin. Ushbu kitobdagi koʻpgina hikoyalari rus tilidan tarjima qilingan.

³ Mahmudov N. Oʻzbek tilshunosligi taraqqiyoti // Oʻzbek tili va adabiyoti - 2001. N:4. B.7.

Ashurali Zohiriy o'zbek tilida birinchi bo'lib "Imlo" darsligini yaratdi. Boshlang'ich maktablarining 4-sinfi uchun mo'ljallangan bu kitob bolalarni savodli qilishda katta rol o'ynadi. Undagi ayrim imlo, ayniqsa, punktuatsion qoidalarining hozirgi adabiy tilimizda o'z aksini topgani Ashurali Zohiriyning yetuk olimligidan dalolat beradi.

Ashurali Zohiriyning tilshunoslikda muhim o'rin tutadigan asari, shubhasiz, uning 1927-1928-yillarda nashr etilgan Ruscha-o'zbekcha mukammal lug'atidir. Lug'at ikki jilddan iborat bo'lib, 34 ming so'zni o'z ichiga olgan. Bu lug'at milliy tilning leksik me'yorlarini belgilashda katta ahamiyatga ega bo'ldi. Lug'atda so'zlarning tayyor shakllari ularning aniq mazmuni va qo'llanilishi bilan berilgan. Shu o'rinda, Ashurali Zohiriyning ilmiy terminologiyani amaliy ishlab chiqishdagi xizmatlarini qayd etish lozim. Lug'atda grammatik kategoriyaga oid ko'plab misollarni topamizki, ularga tayanib Ashurali Zohiriyning grammatik kategoriyalar haqidagi qarashlarini kuzatish mumkin. Ushbu lug'atning ba'zi kamchiliklari borligi ham aniqlangan. Bu yuzasidan Tog'ayev T. dissertatsiya ishida bunga oydinlik kiritadi. "Lug'atning kamchiliklari shundan iboratki, unda so'zlarning ko'p ma'noliligi ajratilmagan. Tarjimalarda ham ba'zi noaniqlik va xatolar mavjud. Shunday bo'lsa-da Ashurali Zohiriyning ushbu ishi o'zbek tilida birinchi mukammal tarjima lug'at sifatida o'z davrining amaliy hamda ilmiy talablariga javob bera olgan"⁴.

Ashurali Zohiriy o'z davrining taniqli tilshunosi sifatida Til - imlo qurultoyi (Toshkent, 1921), lotin alifbosini qabul qilishga bag'ishlangan O'rta Osiyo ilmiy anjumanlarida (Sam. 1926) faol ishtirok etgan.

Ashurali Zohiriy o'zbek jurnalistikasi rivojiga ham katta hissa qo'shgan. U "Sadoyi Farg'ona" (1914), "Xalq gazetasi" (1918), "Farg'ona", "Yangi Farg'ona" (1921-1930) gazetalarida adabiy xodim bo'lib ishlab "Xizmat qahramoni" bo'lgan (1923).

⁴Tog'ayev T.M. Ashurali Zohiriy va uning tilshunoslik merosi : Filol. fanlari nomzodi ...diss. – Toshkent, 2002. - 25 b.

O‘zbek adabiy tilining shakllanishida matbuot tilining o‘rni katta ekanligini, uning ”ona tiliga xizmat” etishi lozimligini doimo ta’kidlagan: ”...gazeta va jurnallarning dunyo ahvolidan va boshqa to‘g‘rilardan xalqqa xabar berib turmog‘idan boshqa ulug‘ va ko‘zga ko‘rinmaydurg‘on bir foydasi bor bo‘lurki,ul ona tilining kengaymog‘i va mukallashmog‘idir”⁵.

O‘zi xizmat qilgan nashrlarda har doim shu jihatlarga katta e’tibor bergan. Fitrat ham Ashurali Zohiriyga yuksak baho berib, uni o‘zbek tili va imlosi ustida ish olib brogan ilk tadqiqotchi sifatida e’tirof etadi.

Ashurali Zohiriyning lingvistik merosi ichida “Imlo” risolasi alohida o‘rin tutadi. Bu risolada u birinchi marta so‘z va uning ma’noli qismlarini qo‘shib yozish, va unda unli tovushlarning ifodalanishi kabi masalalar ustida to‘xtalgan.

”Imlo” risolasi uch qismdan iborat:

1-qism:”Turkiy so‘zlarning qoidalar”;

2-qism: “Arabcha so‘z va kishi ismlarida rioyasi lozim qoidalar”;

3-qism: ”Xatlar orasida rioyasi lozim ishorat va vaqf alomatlari”.

Bu darslik Boshlang‘ich sinf maktab o‘quvchilariga mo‘ljallangan bo‘lgani uchun imlo qoidalar sodda va ixcham,tushunarli bayon qilingan.Bolalar bilimini mustahkamlash uchun har bir bob yuzasidan savol va topshiriqlar berilgan.

“Imlo “ darsligini o‘rganish shuni ko‘rsatadiki,undagi qoidalar asosan tarixiy – an’anaviy, chet so‘zlarni yozish, morfologik, fonetik, differensatsiya tamoyillariga asoslangan.

Imloning 3-qismi punktuatsiya bo‘limiga bag‘ishlangan bo‘lib,unda olim quyidagi tinish belgilarini qayd etadi.

1.Ishorati nuqta .

⁵Zohiriy A. Ona tili // Sadoyi Farg‘ona – 1914, 13-aprel

2. Ishorati savol ?
3. Ishorati xitob va taajjub !
4. Ishorati nuqta va vaqf ;
5. Ishorati ko‘b nuqtalar
6. Ishorati vaqf ‘
7. Ishorati ostin-ustun nuqta :
8. Ishorati musoviy =
9. Ishorati qavsayn yoki tafsir ()
10. Ishorati naql <<>>
11. Ishorati chiziq _
12. Ishorati takzib (!)
13. Ishorati majhul (?)

Ko‘rinib turibdiki, bu tinish belgilari hozirgi qo‘llaydigan tinish belgilarimizdan jiddiy farqlanmaydi. Keyinchalik o‘zgartirish kiritilib, hozirgi tinish belgilarimiz uchun asos bo‘lgan.

Ashurali Zohiriyning tilshunoslikka qo‘shgan hissasi kattadir. Olim o‘zbek tilini o‘rganar ekan, uni uch uslubga bo‘ladi:

- 1.jonli til
2.adabiy til
3.ilmiiy til

Ular haqida to‘xtalar ekan, tilimizning o‘ziga xos tomonlarini ochib berishga harakat qiladi. Garchi, adabiy til bilan ilmiy tilni ajratsa-da, bular orasida katta farq

yoʻqligini koʻrsatadi. Olim adabiy til bilan jonli tilni yaqinlashtirish va adabiy tilni omma uchun tushunarli til boʻlishi lozimligini uqtiradi.

Ashurali Zohiriy koʻp shevali oʻzbek tilida adabiy til uchun tayanch dialektini belgilab olish borasidagi fikrlari diqqatga sazovor. Olim “ adabiy til birligida boshvoqsizlik va bir yoqadan bosh chiqarmaslik”ka barham berish uchun “albatta, oʻzbek shevalaridan birini asos qilib olish kerak”ligini uqtirar ekan, bu masalada toʻgʻri yoʻlda turgan va adabiy tilga Fargʻona shevasini asos qilib olish taklifini ilgari suradi.

1929-yilda Samarqandda boʻlib oʻtgan Til, imlo va istiloh konferensiyasida ham ushbu fikrni qizgʻin himoya qiliadi. Ushbu anjumanda Elbek ham adabiy til uchun Fargʻona shevasini asosga olishni yoqlagan.⁶

Hozirgi adabiy til morfologik jihatdan Fargʻona shevasiga asoslanganligi olimning fikri toʻgʻri ekanligini koʻrsatadi.

Ashurali Zohiriy atamalar masalasida toʻxtalar ekan,til sofligiga alohida eʼtibor beradi. Olim atamalar tizimini yaratishda imkon qadar oʻzbek tilining oʻz ichki imkoniyatlaridan foydalanish gʻoyasini ilgari surgan.Olim xalq tiliga singib ketgan forscha (obdasta,kafgir,goʻsht, sabzi,darvish) arabcha (maktab, kitob, qalam,mehnat), siyosiy va falsafiy sohaga oid ruscha baynalminal (dynamo,volt,radio) kabi soʻzlarni oʻz holicha qoldirishni tavsiya etadi.

Shu bilan birga, u bazi bir atamalarni tilimizdagi ayrim soʻzlar bilan almashtiishni talab qiladi lekin,bu soʻzlar isteʼmolga kiritilmaydi. Masalan, astronomiya soʻzini yulduz biligi,gidrologiya soʻzini suv biligi,botanika soʻzini oʻsimlik biligi kabi soʻzlar bilan almashtirish oʻzini oqlamaydi .

Ashurali Zohiriy oʻz maqolasida imlo masalasiga ham alohida toʻxtalib oʻtadi. Olim oʻzbek imlosini savtiy (funetika) va shakliy – sarfiy formulogiya

⁶ Togʻayev.T.M. Ashurali Zohiriy va uning tilshunoslik merosi :Filol.fanlari nomzodi ...diss. – Toshkent,2002.-B.56.

(morfologiya) asosida qurish taklifini ilgari suradi. Darhaqiqat, o‘zbek tili imlo qoidalarini ushbu tamoyillarga asoslangan. Ashurali Zohiriyning imlo to‘g‘risida ilgari surgan fikrlarida morfologik tamoyil-“imloda sarfiy birlikni mahkam ushlash” yetakchilik qiladi. Olim so‘zlarni qanday eshitsak shunday yozmasdan ularni ma’lum bir qoidalar asosida yozish lozimligini alohida uqtiradi. Masalan “d” bilan boshlanadigan qo‘shimchalar “t” eshitilsa ham asliga muvofiq “d” yozilishini ta’kidlaydi. Shu bilan bir qatorda -ni va -ning qo‘shimchalari ham turlicha talaffuz qilinsa –da, yoki -n tovushi o‘rnida -d, -t tovushlari talaffuz qilinsa ham (Masalan, sichqondi uyi, itdi bolasi kabi) asliga ko‘ra -ni va -ning sichqonning uyi, itning bolasi yozish lozimligini ko‘rsatadi. Bu holat hozirgi o‘zbek tili imlo asoslarini o‘sha davridayoq to‘g‘ri belgilanganligida dalolat beradi.

Ashurali Zohiriyning o‘zbek tilshunosligi tarixida birinchi bo‘lib bosh harflar imlosini ko‘tarib chiqishi, ularni amaliyotga tatbiq etishi imloga qo‘shgan katta xizmatidir. U arab alifbosida bosh harflar imlosi yo‘qligini ta’kidlab: “eski arab alifbosida bosh harflarning yo‘qlig‘i-husni yaxshilig‘i emas, balki uning kamchiligi edi”, degan fikrni bildiradi. Lotin alifbosiga o‘tilar ekan, yozuvda bosh harflarni olish zarurligini ilgari suradi.

Bosh harflarni qabul qilish alifbeni o‘rganish va o‘rgatishda hamda bosmaxonada harf teruvchilarga ortiqcha qiyinchilik tug‘diradi deb hisoblovchilarning da’vosi asossizligini ko‘rsatib beradi. Bunga Yevropaliklarning yozuvlarida bosh harflar qo‘llanishini dalil sifatida keltiradi.

Bundan tashqari A. Zohiriy bosh harflar imlosining yozma nutqda ma’no farqlash tomonini, shuningdek, ta’lim-tarbiyaviy, amaliy ahamiyatini alohida ko‘rsatib o‘tadi.

Bosh harflar imlosidagi boshqa holatlarni ham shu tarzda birma –bir ko‘rsatib, dalillab beradi. Bular olimning 20-yillar tilshunosligiga qo‘shgan hissasi salmoqli ekanini ko‘rsatadi.

20-yillar o‘zbek lug‘atchiligi yaxshi rivojlanmagan paytda rus tilini o‘rganishga bo‘lgan ehtiyojni tezroq qondirish maqsadida A.Zohiriy tomonidan “Ruscha-o‘zbekcha mukammal lug‘at” ning nashr etilishi o‘sha davr madaniy hayotida ulkan yutuq bo‘ldi. ”Ruscha o‘zbekch lug‘atning 1-jildi A-O harflarini o‘z ichiga olib, 352 sahifani tashkil etadi. U 1927-yilda O‘zbekiston davlat nashriyoti tomonidan Samarqand Toshkent manzili bilan bosilib chiqdi.Bu haqida quyidagi ma’lumot beriladi.

Ruscha-o‘zbekcha mukammal lug‘at.

Bu lug‘at 352 katta sahifaga ega bo‘lib, O‘zbekiston davlat nashriyoti tomonidan bostirilg‘on. Hozirda lug‘atning faqat O harfigacha bo‘lg‘on qismi bosilg‘on va bu qismning bahosi 2 so‘m 40 tiyindur. Bu lug‘at rus adabiyotidan foydalanmoqchi bo‘lg‘on o‘rtoqlar uchun juda zarurdir.Shuning uchun lug‘atdan foydalanishni yoki o‘qig‘uchilarimizga,ayniqsa, muallimlarimizga tavsiya qilamiz .kitobning ikkinchi qismi tezda chiqadi ⁷.

Lug‘at to‘la nashr etilgach,bunday xabarlar boshqa gazetalarda ham bosildi. Jumladan,”shunday bir zamonda tilga boy bo‘lg‘on ruscha –o‘zbekcha kitobining maydonga chiqishi cho‘llagan daraxtlarga suv berganday bo‘ldi” deya baho beradi Hazratiy ismli kishi Moskvadan turib⁸.

Bu lug‘at rus-o‘zbek tillari tarjima lug‘atchiligining asosi bo‘lib qoldi. Ruscha – o‘zbekcha mukammal lug‘at Ashurali Zohiriyning tilshunoslikdagi eng salmoqli ishidir.

Xullas, Ashurali Zohiriy davrining zabardast ziyolisi,millat taraqqiyoti,istiqboli yo‘lida tolmas kurashchisi sifatida o‘zbek tilining bir qator amaliy masalalarini hal

⁷ Tog‘ayev.T.M. Ashurali Zohiriy va uning tilshunoslik merosi :Filol.fanlari nomzodi ...diss. – Toshkent,2002.-B.77.

⁸ Hazratiy .Ruscha-o‘zbekcha mukammak lug‘at//Qizil O‘zbekiston gaz.-1927 .

qilishda faol ishtirok etdi. Ayniqsa, imlo va fonema sohasidagi kuzatishlari o'zbek tilshunosligining rivojiga munosib hissa bo'lib qo'shildi.

1.2. Elbekning tilshunoslik merosi

O'zbek tilshunosligi rivojida Elbekning ham o'rni beqiyosdir. Mashriq Yunus o'g'li Elbek 1898- yil Toshkent viloyatining Bo'stonliq tumanida tug'ilib o'sdi. Yoshligidan o'qishga ishtiyoqi kuchli bo'lgan Elbek A. Avloniy, Munavvar Qori tomonidan tashkil etilgan "usuli jadid" maktabida tahsil oldi.

Keyinchalik, Fitrat tomonidan tashkil etilgan "Chig'atoy gurungi" to'garagida Mashriq o'zining ilmiy faoliyatini boshlab yubordi. She'r va maqolalarida ustoz Fitrat tanlab bergan Elbek taxallusini qo'llay boshladi.

Fitrat boshchiligidagi "Chig'atoy gurungi" a'zolari ilk bor o'zbek tilini ilmiy asosda o'rganishga kirishdilar. Ular til qoidalarini rus yoki arab tili grammatikalari asosida emas, balki shu tilning ichki xususiyatlari asosida yoritish kerakligini tushunib yetganligi sababli tarixiy asarlar, xalq og'zaki ijodi namunalari, shevalar asosida materiallar to'plab ularni ilmiy jihatdan o'rgana boshladilar. Shuning natijasida, til sohasida o'zining faoliyatini boshlab yuborgan Elbekning birinchi "Bitim yo'llari" asari asosda yaratilgan "Yozuv yo'llari" nomli imlo asarlari yaratildi. Yozuv yo'llari asarida ko'proq imlo masalalariga e'tibor berilgan. Elbek yangi imloni maktablarda tezlik bilan joriy etish maqsadida bu kitobni tuzib tarqatdi. Bu asar 20-yillarda imlo turligiga chek qo'yish, qat'iy yozuv qoidasini o'rnatishda g'oyat katta ahamiyatga ega bo'ldi.

"Bitim yo'llari" o'qituvchilarga qo'llanma sifatida yaratilgan bo'lsa, "Yozuv yo'llari" maktab o'quvchilari uchun mo'ljallangan.

“Yozuv yo‘llarida “da qoidalar, izohlar birmuncha mukammal ishlangan. Ularda ilmiylik ko‘zga yaqqol tashlanadi. Masalan, “Bitim yo‘llari”da unli tovushlarga shunday ta’rif berilgan .

“bor “deganda yana ikki turli tovush chiqaramiz: boshda dudoqlarimizni yopushtiramiz, so‘ngra tilimizni uchini o‘ynatamiz .Bu ikki turli tovushning suratlari “ b” va “ r” harflaridir .Lekin bu ikki harfning orasida shu “ o” shakl bordir. Shu shakl bo‘lmog‘onda ” b ” harfini “ r “harfig‘a yopishtirub bir der edik .Bu yerda “ o “ shaklini ko‘rgach “b “ harfini “ r “ga yopishtirmasdan burun ustka cho‘zamiz .Demak, “ o “ shakli o‘zidan burun kelgan ustka cho‘zdura ekan. Buning odi “cho‘zgi harfi” dir.

3-4 yil davomida tovushlar borasida yaxshigina izlanishlar olib borgan Elbek o‘zining mustaqil ilmiy xulosalariga tayangan holda unlilarga keng va aniq ta’rif bergan : qul, qol, kel, deganimizda birinchi qul so‘zidagi “q “ tovishliqining ilgariga cho‘zilg‘onlig‘in, qol deganimizda “q” tovishliqining ustga cho‘zilg‘onlig‘in hamda kel deganimizda “ k “tovishlig‘ining ostg‘a cho‘zilg‘onlig‘in ko‘ramiz . Mana shunday tovishliqlarning o‘z aytilishidagi tovushlaridan ortuqroq tovish bildirishiga sabab bo‘lg‘on tovishliqlarg‘a “ tovishliq cho‘zg‘ulari “ yohud yolg‘uzcha – “cho‘zg‘i“ deb aytiladir.⁹

“Bitim yo‘llari “da atf sigasi, odot kabi murakkab arabiy terminlar qo‘llanilgan . “Yozuv yo‘llarida “ bularning o‘zbekchalarini topib ishlatishga harakat qiladi. Masalan, odot o‘rnida qo‘shimcha terminini qo‘llaydi. “ bitim yo‘llarida” gi tovush harfini ixchamlashtirib tovushliq tarzida ishlatadi. Elbek shu asosda saboqlikning uslubini ham soddalashtirishga erishadi.

20- yillarda qabul qilingan o‘zbekcha tovushliq va cho‘zg‘i atamalarining bir tomondan u qadar ilmiy asosga ega emasligi ,ikkinchi tomondan turkiy xalqlarning bu o‘rinda qabul qilingan atamalari andazasiga to‘g‘ri kelmasligi

⁹Elbek.Yozuv yo‘llari. –T; Turkiston jumhuriyatining davlat nashriyoti, - 1921.-B.30.

sabab tilshunoslarimiz orasida ularni o'zgaetirish fikri tug'iladi .”Butun turklar uchun bir turli atama qabul qilinsin, atamalar faqat turk so'zlaridan olinsin “ degan taklif kiritadilar. Shunga asoslanib, olimlarimiz usmonli turklar tarafidan qabul qilingan unli , unsiz atamisini qo'llashni muvofiq topdilar.

1930 –yilga kelib esa, bular o'zlashib ulgurmasdan yana o'zgartirildi. Tilimizni rus tili qonun –qoidalari asosida izohlay boshlagan olimlarimiz 1938-yilda unsiz termini o'rnida “согласный” so'zidan kalkalab olingan undosh terminini qo'llay boshladilar

Elbek til masalasiga juda kata e'tibor qaratgan : “Bir ulusning dunyoda borliqqa chiqara turg'on narsasi, shubhasiz, uning milliy narsalari va tili bo'lg'usidir “¹⁰ - degan Elbek tilning fan va madaniyat taraqqiyotida naqadar ahamiyatli ekanligini bazi bir zamondoshlaridan ko'ra ko'proq anglab yetgan, shu sabab o'z faoliyatining asosiy qismini o'zbek tilining lug'at boyligini o'rganishga bag'ishladi.

O'lkamizda matbuotning rivojlanishi o'zbek adabiy tilining shakllanishi, ishlanishi va rivojiga katta ta'sir qildi. Yangi ilm-u fan va texnikaning kirib kelishi ziyolilar gardaniga ularni o'zlashtirish va xalqqa yetkazishda kabi ma'suliyatli vazifalarini yukladi . Tilshunoslar oldida yangi o'quv darsliklarini tuzish uchun ilmy, faniy, siyosiy terminlar yaratish ularni adabiy tilga o'zlashtirish kabi muhim vazifalar turar edi. Ana shu ma'suliyatlarni his etgan Elbek o'zining bor imkoniyati, iqtidorini ishga solib lug'atto'plashgakisirdi. U Chig'atoy gurungi a'zolarining yot so'zlarini yoppasiga turkiylashtirish harakatlari natijasida yuzaga kelgan nuqsonlar va chalkashliklariga barham berish maqsadida 20-yillar davomida muomalaga kiritila boshlagan sof turkiy so'zlarni hamda o'z izlanishlari davomida to'plagan lug'at va atamalarni jamlab fikr olishuv uchun matbuotda quyidagi tartibda e'lon qila boshladi:

¹⁰Elbek. O'lkamizda qurultoyi va uning qoldirg'on ta'siri// Qizil bayroq. -1921.-13-yanvar

Turkiy	Oʻzga
1. Tegra –toʻgarak	doira
2. Avay	ehtiyot
3. Yut	qahat
4. Boshqarma	idora
5. Bosqoq	noyib
6. Yozoq	maktab... ¹¹

Shu asosda 550 ta turkiy soʻz oʻzining yot muqobillari bilan gazetaning 10 ta sonida (1923 yil 5 sentabrdan 21 noyabrgacha) “ Lugʻat va atamalar ” bobi nomida berilib borilgan .

Oʻsha vaqtda yaratilgan maktab darsliklarida mualliflar tomonidan yaratilgan maktab darsliklarida mualliflar tomonidan turli xil terminlar qoʻllangan . Masalan, arabcha zuli soʻzi tomon manosini anglatga –da, Toshkentda bu oʻrinda qobirgʻa soʻzi ishlatilgan . Musallas oʻrnida Fargʻona vodiysida uchburchak, Toshkentda uchlik terminlari ishlatilgan. Elbek bundayhar xillikni bartaraf etish maqsadida har bir tushuncha uchun qatʻiy bir termin olishni yoqlab chiqadi.

Shu asosda Elbek tilimizning ishlanishiga yoʻl ochib baʻzi nuqson va kamchiliklarni bartaraf etdi.

Elbekning “ Lugʻat va atamalar “ asari ilmiy atamalar va kundalik turmushga oid soʻzlar kabi ikki guruhga boʻlinadi:

1. Ilmiy atamalar: a) *riyoziyotga oid soʻzlar:* sath-yuz, musallas – uchipuchmoq, kasr –ushoq

¹¹Elbek. Lugʻat va atamalar// Turkiston- 1923.

v) *tilshunoslikka oid terminlar* : adad-son, zamir-olmosh, fe'l-ishlik, odot-qo'shimcha, hukm-kesim, asos-negiz, shakl-ap, nuqta –turtki, qavs-yoy;

g) *adabiyotga oid terminlar* : opera –lapar, shoir –oqin, nasr-sochma, nazm-tizma, adabiyot-ardamlik, mezon-o'lchak.

2.Kundalik turmushga oid so'zlar:

a) *inson tana a'zolari va unga aloqador bo'lgan so'zlar*: tan-gavda, asab-singir, lab-dudog', ustxon-suyak, panja-barmoq;

b) *kasb hunar egalari va shaxsni ifodalovchi so'zlar*: notiq-chechan, sehrgar-ko'zboqchi, muhojir- soqchi, qassob-etchi, suflyor-shivirchi, puchtalyon-chopar;

v) *mavhum tushunchalarni ifodalovchi so'zlar*: ishq-sevgi, gina-o'pka, taqdir-yozmish, rashk-kunilash, sabr-to'zim, diqqat-ichik, baxt-o'raz.

Elbek bu terminlarning ko'pchiligini turkiy tillardan o'rganib, ma'qul bo'lganlarini o'zbek tilida ham shu o'rinlarda qo'llashni taklif qilib chiqqan. Tanlangan terminlar til hodisasining mohiyatiga to'la mos kelmasada, atamalarning ko'pchiligi hozirga qadar tilshunosligimizda ishlatilib kelinmoqda.

Bundan tashqari Elbek shakldosh va ma'nodosh so'zlarni o'rganib, "O'zbekcha shakldosh so'zlar lug'ati " va "O'zbekcha ma'nodosh so'zlar lug'ati " nomli kitoblarni tuzadi.

"O'zbekcha shakldosh so'zlar lug'ati"da 416 shakldosh so'z alifbo tartibida berilgan .Shakldoshlarning berilish tartibi juda ham sodda, ya'ni avval shakldosh so'z izohlangan, so'ngra ilyustrativ misollar keltirilgan.

Lug'atda qo'llanilgan izoh turlari .

Chaqmoq

1. Bulutlarga yelning ta'siri ya'ni yelning siqishi natijasida bulutlarning bir biriga surkalishi sababli hosilbo'lgan elektr yoqlini .

Misol: Yashinday, chaqmoqday o'ynaydi

Suratli, haybatli mashina qo'ynida .

(Karim Ahmadiy "Sur'at " she'rlar to'plami.)

2. Yilon, ari singari zaharli jonivorlarning tishlovi, masalan, " yilon chaqdi" deyiladi ammo yilon tishladi deyilmaydi.

3. Maydalab, chaqib bo'laklarga ajratmoq, masalan, yirik qaandni chaqib maydalanadi va bunga "chaqmoq qand" deyiladi.

Elbekning tilshunoslik me'rosini o'rganar ekanmiz, u tashlagan poydevor o'zbek tilshunosligi Grammatik terminologiyasining va lug'atshunoslikning shakllanishiga, ularning takomillashuviga zamin bo'ldi. Umuman olganda Elbek faol xizmatlari, salmoqli ilmiy me'rosi bilan o'zbek tilshunosligi fani taraqqiyotiga o'z hissasini qo'shdi va tilshunos olimlar orasida alohida e'tibor qozondi. Maydi.

ЎЗСШ МААРИҒ КҒМИСҒРЛИГИ ДҒВЛҒ ТИЛ-ТЕРМИН ҚОМБТАСЫ

ELBEK

ОПИСАНО
УНИВЕРСАЛЬНАЯ
УЗССР

ЎЗБЕКЧҒ ШҒКЛДАШ СҒЗЛҒР ЛУҚАТЫ

(Бзаш вҒ мҒсаллар билҒн)

Ўз. СШ ДҒВЛҒТ НҒШРИАТЫ
Тошкент 1934 Самарқанд

Ўлбек. Ўзбекча шаклдош сўзлар луғати, Самарқанд-Тошкент.
Ўздавнашр. -1934. -159 б.

3.1. Fitratning tilshunoslik merosi

XX asr boshlarida Markaziy Osiyodagi ma'rifatparvarlik harakatida Abdurauf Fitrat, so'zsiz porloq yulduz kabi porlab turadi. U arab, fors, rus, turk tillarini mukammal bilgan holda o'zbek tilining turkiy tillar tizimidagi o'rnini va bundan keyingi istiqbolini belgilab berishga intiladi.

Avvalo o'zbek (chig'atoy) tilining boshqa tillar tizimida tutgan o'rne, imkonyatlari qanaqa? Bu mustaqil tilning boshqa tillar bilan munosabati qanday va bundan keyin qay tarzda rivojlanishi kerak?

Fitrat mazkur savollarga javob berarkan, "Sharq tarixi, adabiyotida ikkinchi o'rin tutqon turk adabiyotining eng muhim, eng ko'pi, eng qimmatlisi chig'atoy shevasidagi adabiyot" ekanini ta'kidlaydi. Shuning uchun tilimizning ham turkiy tillar orasida eng yuqori mavqeda turishini bayon qiladi.

Arab va fors adabiyotining birinchi sarada turishi bu tillarning boyligida emas, balki turkiylardan chiqqan shoirlarning, olmlarning (masalan Ibn Sino, Jaloliddin Rumiy, Forobiy, Bedil va boshqalar) arab va fors tillarida ijod qilg'onliklarida ekanini ko'rsatadi.¹²

Tilimiz sharq tillarining birinchisi ekanini dalillar bilan isbotlaydi va turkiy adabiyotning ko'pi arab va fors tillarida ijod qilgani sababli adabiyotimizning ikkinchi bo'lib qolganidan afsuslanadi. Abdurauf Fitratjonkuyar tilshunos sifatida 20-yillar til siyosati qozonida qaynaydi turkiy tillarni birlashtirish siyosatining oqibatlarini sezgani holda har qaysi turkiy tilning umumiy jihatlari bo'lishi bilan birga xususiy, o'ziga xos jihatlari ko'pligi, shuning uchun har qaysi turkiy mustaqil ravishda rivojlanishi va o'z xalqiga xizmat qilishini angladi. Shuning uchun o'zbek tilining bundan keyingi istiqboli haqida qayg'urdi.

¹²Fitrat. 1921 yil til va imlo qurultoyida so'zlangan nutq. 1921 yil til va imlo qurultoyining chiqargan qarorlari. - Toshkent, 1922. - B.35-40.

Abdurauf Fitrat o'zbek tilining o'ziga xos xususiyatlari ochib berish har bir lingvistik hodisaning mohiyatini ifodalay oladigan qat'iy qoidalar yaratish lozimligini ta'kidlaydi. Bu haqida yozadi: *tilimizning iste'dodli boy bir til bo'lg'onini qichqirib so'ylaydik. Bu til (do'qqidir) qo'pdir, buning o'rniga turkchaning adabiy bir shevasini olaylik degan til bilmaslar bilan kurashdik, ularni yengdik. Biroq hanuz tilimizning belgili qoidalarini maydonga qo'ya olmadik*".

Ta'kidlash kerakki, o'zbek tili ko'p shevaliligidan yangi o'zbek adabiy tili qanday bo'lishi, qaysi shevalarga tayanmog'i lozim degan muammo bu masalalardan edi. Fitrat mazkur muhim masala bo'yicha fikr yuritib shahar shevalarga arab, fors tillari ta'siri kuchli ekani, shuning uchun bu shevalarga emas, balki qishloq shevalariga tayanish lozimligini bayon qiladi. *"Bizning shaharlarlarimiz ko'plab yillardan beri arab, forsiy adabiyotining hukmi ostida yashaydi. Shuning uchun bizda shahar tili buzulg'ondir. Tilimizning sof shaklini daladagi el-aymoqlardan ko'ra olamiz"*.

Shuning uchun el-aymoqlar orasida ularning jon og'izi bo'lib turg'on dostonlar, ertaklar, matallar, laparlar, ashula-qo'shiqlarni xalq og'zidan qanday talaffuz qilinsa shundayligicha yozib olish, ularni sinchiklab o'rganishva shu asosda ma'lumilmiy xulosaga kelish lozimligini ko'rsatadi. Fitrat yuqoridagi fikrlari asosida singormonizmli shevalar o'zbek adabiy tilining tayanch shevalari bo'lish kerak, degan xulosaga keladi. O'zbek tilining fonetik tizimi, morfologik tuzilishi haqida fikr yuritilganda ham ana shu bosh tomoyildan kelib chiqiladi.

Madaniyatimiz tarixidagi buyuk siymolardan biri bo'lgan Abdurauf Fitratning ilmiy me'rosida tilshunoslikka oid asarlar salmoqli asarlar o'rin tutadi. U o'zbek ilmiy nazariy masalalarga bag'ishlangan bir qancha asarlar yaratdi. Uning "Tilimiz" (Ishtirokiyun 1919, 132-son) "Arab alifbosining tarixi" "Ozod Buxoro" 1926, "O'zbek tilining sarfi to'g'risida. ("Qizil O'zbekiston" 1925.) "O'zbekcha til soboqlar", (Qizil O'zbekiston 1926) "Muqaddimatul adab" ("Maorif va o'qitg'uvchi") 1926, (7-8 son) Imlo konfrensiyasi munosabati ila "Maorif va o'qitg'uvchi" 1928 3-son), O'zbek tili qoidalarini bir tajriba: "Sarfi" (1-kitob), "Nahv" 2-kitob (1925-1930 yillar Samarqand Toshkent) asarlari fikrimiz dalilidir. Fitrat tojik tilining ayrim masalalari haqida "Sarfi tojik zaboni", "Dar girdi alifboi toza", "Dar girdi alifboi nav" asarlarini yozdi. U tilshunoslikning ilmiy nazariy masalalari bilan shug'ullanish bilan birga 1918-19 -yillarda Toshkent dorumualimida ilmgohda, 1927-29 yillarda Samarqand dorumfunundida o'zbek tili haqida ma'ruzalar o'qildi.

XX asr arafasidagi ijtimoiy-siyosiy moddiy va ma'naviy, madaniy va ruhiy muhit o'zbek tili taraqqiyotida muayyan iz qoldirdi. O'zbek tilining lug'at tarkibida, ayrim grammatik shakllarning qo'llanishida, imlo va alifbo sohasida muayyan o'zgarishlar yuz berdi. Bu davr tilida eski o'zbek hamda yangi o'zbek adabiy tili xususiyatlaribilan birga, boshqa tillarning (tatar usmonli turk, rus va b) ham unsurlari tez-tez uchrab turadi. Ana shunday sharoitda o'zbek adabiy tilining nazariy masalalarni ishlab chiqish, til dolzarb masala ediki, bu sermashaqqat hamda o'ta ma'suliyatli vazifani o'z zimmasiga olgan olimlardan biri muhim nazariy masalalarni ishlab chiqdi va o'sha davr Turkiston ilmiy muhitida, xususan, til siyosatida faol ishtirok etdi. Fitrat tilshunos sifatida imlo qoidalarini ishlab chiqishga, tilimizning leksik va stilistik me'yorlarini hamda adabiy tilning taraqqiyot yo'llarini belgilashga va o'zbek tili punktuatsiyasi, morfologiyasi va sintaksisi qonuniyatlarini aniqlashga katta hissa qo'shdi. Fitrat yashagan davrda bu masalalar hali to'la o'rganilmagan vayetarli darajada hal etilmagan edi.

Abdurauf Fitrat birinchilardan bo'lib o'zbek tili gramatikasini yaratishga kirishdi. 1925-yilda uning "O'zbek tili qoidolari to'g'risida bir tajriba: Sarf (1-kitob) Nahv (2-kitob)" asari bosmadan chiqdi. Bu asar o'zbek tili gramatikasining barcha masalalarini o'z ichiga qamrab oladi. Fitratning ushbu asari 1925-1930 yillar oralig'ida bir necha marta nashr qilindi. "Nahv" asarining so'z boshida olim quyidagilarni yozadi: "Biz til qoidalarini ham uning atamolari (istilohlar) to'g'risida ishlashning birinchi paytida yashaymiz. Shuning uchun tilimizning qoidalarini butunlay maydonga atamalarini sobit bir holga keltirg'onimiz yo'q. Bu to'g'rida til muallimlarimizaro birlashgan hanuz yo'qdir... Tilimizni butun qoidalarini aniqlab, atamalarini maydonga qo'ymoq uchun yana biroz tirishmagimiz, bir-birimizga ko'mak qilishimiz lozim". Ko'rinadiki, Fitratning maqsadi tilimizda amal qiladigan qonuniyatlarni atroflicha o'rganish, til hodisalarini aniqlab ular mohiyatiga mos keladigan ilmiy atamalarni to'g'ri belgilash edi.

Bu davrda o'zbek tili masalalariga bag'ishlangan M.M. Faxridinovning "turkcha qoidalar" (Toshkent 1923), Elbekning "Bitik yo'llari" (Toshkent 1919) va "Yozuv yo'llari" (Toshkent, 1921), Shorasul Zununning "O'zbekcha til qoidolari" (Toshkent 1925) Munavvar qori Ramazon, Shorasul Zununning "O'zbekcha til soboqlari" (Toshkent 1925) E.D Polivanovning "Kratkaya gramatika uzbekskogo yazika" (Toshkent Maskva 1926) Sh. Zununning "Til qoidolari (Samarqand Toshkent) kabi kitob darsliklari ham nashr qilingan. Ko'rib o'tganimizdek, bu davrda Fitrat asarlaridan tashqari, o'zbek tili haqida anchagina darslik va qo'lanmalar yaratilgan. Fitratning tilshunoslik me'rosini yuqorida zikr etilgan asarlar bilan birgalikda o'rganish maqsadga muvofiqdir. Chunki bu asarlar biri ikkinchisini to'ldiradi, ularning birida qayd etilmagan til hodisasi boshqasida qayd etiladi. Ushbu asarlarning hammasi yig'ilib 20-yillar o'zbek tilshunosligining shakllanish bosqichini, vujudga kelish jarayonini ko'z oldimizda gavdalantiradi.

Abdurauf Fitratning “Sarf” asarida morfologiya haqida bahs yutitiladi. Ma’lumki, morfologiya tilshunoslikning soʻz turkumlari va kategoryalarni, soʻzning shakllar tizimini hamda shu shakllarning hosil boʻlish yoʻllarini oʻrganuvchi boʻlimdir. Kitobda morfologiyadan tashqari, oʻzbek tili fonetikasi haqida ham muhim fikrlar uchraydi; oʻzbek tilidagi unli va undosh tovushlar va ayrim fonetik qonunyatlar (yoʻgʻonlik ingichkalik, tovush tushish hodisalari) haqida ma’lumot beradi.

Fitrat tilshunoslik merosidagi eng muhim nuqtalardan yana biri – uning til taraqqiyotiga oid fikrlaridir. U adabiyotshunoslikning nazariy masalalariga bagʻishlangan “Adabiyot qidalari” kitobida quyidagilarni yozadi: Uch yoʻl bilan tilimizga yangi soʻz kirishini talab etmasak, tilimizni boyishdan toʻxtatgan boʻlamiz.

1. Yangidan yasaymiz (uchgʻich)
2. Yotlardan olurmiz (elektrik)
3. Unutilib ketgan eski soʻzlarni yangidan tirgizamiz(qurultoy).

Fitrat bu yerda oʻzbek tilining taraqqiyot manbalari haqida fikr yurityapti. Uning nuqtai nazaricha milliy tillarning rivojlantirishning birinchi omili har bir tilning oʻz imkoniyatlari asosida yangi soʻz yasashdir. Yangi tushunchalar hosil boʻlar ekan, ularni ifodalovchi yangi soʻzlar yangi shakllar izlab topish tillarni ana shu tarzda boyitish eng toʻgʻri yoʻldir. Tilning milliy tabiatidan kelib chiqqan holda yasalgan, oʻsha tilning tabiatiga toʻla mos keladigan bunday yasama tilning sofligini, milliyligini saqlab qoladi. Yuqorida misol qilib keltirilgan “uchgʻun” oʻzbek tilining ichki imkoniyatlari asosida yasalgan. Uch (oʻzak)+gʻich=(negiz). Bu yerda oʻzbek qismi hamda negiz qismi oʻzbekcha boʻlgani kabi ular oʻrtasidagi yasalish ham oʻzbekchadir. Hozirgi tilimizdagi ayrim soʻzlar yuqoridagi talablarga javob bermaydi. Misol: tayyoragoh, ilmgoh, dorulfunun, kuliyot, oinaijahon, jarida, roʻznoma va b.

Fitratning fikricha yangi tushunchani tilning ichki imkonyatlari orqali ifodalashning imkonyatlari bo'lmasa, u holda boshqa tillardan so'z qabul qilish maqsadga muvofiqdir. Bu ham milliy tilning rivojiga ijobiy ta'sir qilishi mumkin. Shu o'rinda ta'kidlash joizki, olinma so'z tilning miliy tabiatiga – tovushlar tizimiga sintaktik qonunyatlariga moslashtirish zarur. Shundagina bu so'z mazkur tilning o'z boyligiga aylanadi. Fitrat bu xususida “Tilimiz” maqolasida quyidagilarni aytadi: “Hozirgi so'zlarimizdagi arabcha forsiychalarni bir nechasi turkcha topilmaydir, desangiz to'g'ridir. Biz ularni chiqarmoqchi emasmiz. Ularni olurmiz, lekin o'zimizniki qilurmiz. “Turklashtirurmiz”.

Keltirilgan parchadan anglashiladiki, Fitrat tilimizda muqobil (tarjimasi) bo'lmagan, yasashning ham imkoni bo'lmagan ayrim arabcha, forsha so'zlarni qabul qilishni ma'qullagan holda bu so'zlarni o'zimizniki qilib olish “turkchallashtirish” fikrini ilgari suradi. Fitrat “o'zimizniki qilurmiz” deganda o'zlashgan so'zlarni tilimizning fonetik, morfologik, sintaktik qonunyatlarga moslashtirish nazarda tutgan. Fitrat shu o'rinda “qavoidi sarfiya” birikmasini misol qilib ko'rsatadi. Bu birikmadagi har ikki so'z ham arabcha bo'lib “qavoid” qoida so'zining ko'plik shaklidir. Bu hodisa arab fors tillarida siniq ko'plik deyiladi. “Sarfi” so'zi esa, hozirgi tilshunoslikdagi atama aytganda, morfologiya demakdir. Ushbu so'z birikmasidagi tobe so'z bilan hokim so'z arab tilining ichki qonunyatlarini orqali birikkan. Fitrat esa bu birikmadan har ikkala so'z birikmasi o'zbekchallashtirildi. Fitratning o'zi aytganidek, turkchallashtirildi. Shu tariqa olim tilimizning miliy xususiyatlarini saqlashga, uning ichki qonunyatlariga amal qilishga harakat qiladi. Tillarni taraqqiy qildirishning uchunchi yo'lini Fitrat “unutilib ketgan eski so'zlarni yangidan tirgizish” deya ko'rsatadi. Eski so'zlarni yangidan tirgizish bu yangi tushunchalarni ifodalashda arxaizmlardan foydalanish demakdir. Bu ham milliy tillarni o'z ichki manbalari asosida rivojlantirishni ta'minlaydi. Bizningcha, arxaizmlardan unumli hamda o'rinli foydalanish tilimizga ikki tomonlama foyda beradi: birinchidan turkiycha so'zlar hisobiga tilimizning

sof-adabiy tili bilan eski o‘zbek tilini bir-biriga yaqinlashtiradi, ular orasidagi tafovutni kamaytiradi.

Ma’lumki, tilshunoslik fanida adabiy til sheva va diolektlardan so‘z olish hisobiga ham boyib borishi e’tirof etiladi. Xo‘sh Fitrat-chi? Uning sheva va so‘zboshisida Fitrat quyidagilarni yozadi: Bilamizki bizning shaharlarimiz yuzlab yillardan beri arab, forsiy adabiyotning hukmi ostida yashaydir. Shuning uchun bizda shahar tili buzug‘dur. Tilimizning sof shaklini daladagi el-aymoqlarimizda ko‘ra olamiz” (lotin yozuvida). Bu yerda o‘zbek tilining sofliqi haqida gap ketsada, biz uchun muhimi, Fitratning xalq jonli tiliga, xalq og‘zaki ijodi namunalariga bo‘lgan e’tiboridir. Bundan anglashiladiki, Fitrat adabiy til me’yorlarini belgilashda, adabiy tilni boyitishda jonli tilning – sheva va dialektlarning katta ahamiyati ega ekanligini chuqur his etgan. Yuqoridagi fikrlardan anglashiladiki, professor Abdurauf Fitrat milliy tillarning ichki va tashqi taraqqiyot manbalarini tog‘ri ko‘rsatadi.

Fitratning til taraqqiyoti haqidagi fikrlarni tadqiq qilar ekanmiz, tilshunosligimizda shu kungacha munozarali bo‘lib kelayotgan purizm masalisiga duch kelamiz. Purizm bu (lotincha purus- sof) tilning soligi uchun kurash demakdir. Yaqin – yaqingacha purizmga salbiy hodisa sifatida qarab kelindi. Taniqli turkiyshunos A.K. Borovkov 1940-yilda e’lon qilingan “1905-1917-yillarda o‘zbek adabiy tilida” degan kitobida purizmni “o‘zbek burjua millatchilari mafkurasini tildagi aksi” sifatida taqdim qiladi. “Lingvistik terminlarning izohli lug‘ati”da esa purizmga quyidagicha ta’rif beriladi: “purizm tilning sofliğini saqlashga urinish, unda yuz beradigan har qanday yangiliklarga, chet tillardan so‘z o‘zlashtirishga qarshi chiqish”. Keltirilgan parchadagi “tildagi har qanday yangiliklarga qarshi chiqish” degan fikrga qo‘shilib bo‘lmaydi. Bu purizmning asl mohiyatidan uzoqlashishga olib keladi. Purizm muayyan tarixiy sharoitda har bir tilda vujudga kelishi mumkin. Aniqroq qilib aytsak, bir tilning tovushlar tizimida, leksik tarkibida, sintaktik qurilishidabegona tillarning tazyiqi paydo bo‘lishi

mumkin. Ana shunday vaziyatda til tozaligini, milliyligini saqlashga harakat, ya'ni purizm vujudga keladi. XX asr boshlarida o'zbek tilida ana shunday hodisa yuz berdi. Bu davrdagi o'zbek tilida arabcha, forsha so'zlar bilan birga, usmonli turk va tatar tillarning unsurlari katta foizni tashkil qilar edi. Achinarli tomoni shundaki o'sha davrlarda turkiy tillarning bir qismi bo'lgan usmonli turk tili maktablarda ona tili sifatida o'rgatila boshlaydi, o'zbek tilining nazariy qoidalari ham usmonli turk tilining nazariyasiga moslashtirila boshlaydi. Fitratningquyidagi fikrlariga etiboringizni jalb qilmoqchimiz: "... mana shuning bilan maktablarimiz, yo'lovchilarimiz usmonlicha ta'siri ta'siri ostida qoldilar. Matbuotimizga biroz tatarcha qatnashib qoldi. Toshkentda ochilg'on kurslarda ona tili saboqlari berilgan sog'atlarning ko'prog'i usmonlicha berildi. Samarqandda ochilg'on birinchi mualimlar kursida esa, ona tili degan narsa kirgizilmadi. 18-maorip sho'rosining bir majlisda ham o'tgan yildagi muallimlar quriltoyida shunday bir qaror berilgan edi: "maktablarimizning ibtidoiy uch yilida ona tili o'zbekcha o'qitulsin!" Bularning adabiy umumiy turk tili deganlari – arabcha qatnashg'on usmonlicha edi". Shunday tarixiy sharoitda o'zbek tilini boshqa tillarning tazyiqidan himoya qilish juda zarur edi. Ushbu tarixiy zarurat purizmni vujudga keltirdi. Bu harakat "Chig'atoy gurungi" tashkilotining faoliyati bilan uzviy bog'liq edi. Bu uyishma a'zolari o'zbek xalqining o'z milliy adabiyoti va milliy tili bo'lishi uchun faol kurashdi. Ular "Devoni lug'atit turk"dan va undan ham avvalroq boshlangan o'zbek adabiyoti va tilining XX asrda oldingidek alohida adabiyot va til sifatida yashab qolishi uchun qayg'urdilar. Ular 1921-yilgi til va Imlo quriltoyida: "o'zbek adabiyotida butun chet millat va qabilalarning ta'siridan qutilib chin ma'nosi bilan asl o'zbek xalqining adabiyoti bo'lsin",- deya qaror qabul qilgan edilar. Bu davrda umumturk til va adabiyot yaratish kurash davom etardi. Shuni ta'kidlash joizki, ba'zi ziyolilar umumturk tili va adabiyoti deganda usmonli turk tili va adabiyotini nazarda tutar edilar. Fitrat umumturk tili yaratish turkiy xalqlarni birlashtirish g'oyasiga qo'shilgan holda yuqoridagi qarashlarga qarshi chiqdi. "Emdi biz chin etmak uchun shevadan birisini yo'q qilmoq kerak emas. Balki uchovi (o'zbekcha,

usmonlicha, tatarcha – ta’kid bizniki) birga etishmog‘i kerak. Bu shevadan yot so‘zlarni (arabcha, porsiycha, ruscha) chiqarsak buyuk ideyalizm bo‘lg‘on “turklik”ka yetishamiz. Shuning uchun bu uchovining yashashi kerakdir”.

Ko‘rinadiki, Fitrat turkiy tillardan, jumladan, o‘zbek tilidan yot so‘z va shakllarni chiqarib tashlashni taklif qiladi. Sababi, birinchidan, butunlay boshqa til gurihiga mansub tillarga (arab, fors, rus) oid so‘zlar va shakllar turkiy tillarda keskin ko‘payib ketganligi bo‘lsa, ikkinchidan, o‘zbek tiliga usmonli turk va tatar tili unsurlarining kirib kela boshlagani edi. Shunday sharoitda Fitrat o‘zbek tilining sofliги, milliyligini saqlab qolish uchun tilimizni o‘zlashgan so‘zlardan tozalash kerakligini tushunib etdi. Nazarimizda, o‘sha paytda tilimiz milliy xususiyatlari asrab qolishning o‘zga yo‘li yo‘q edi. Fitratning bu harakatlarini zaminida o‘zbek tilini boshqa tillarning tazyiqidan himoya qilish fikri yotadi. Fitrat purizm tillarning bir-biriga tazyiqiga qarashidir!

Fitrat butun umri davomida o‘zbek tilining sofliги uchun kurashdi uni boshqa tillarning tazyiqidan himoya qildi. Bu boradau o‘zbek xalqining buyuk mutafakkiri Alisher Navoiydan keyin ikkinchi o‘rinda turadi. Fitratning tilimiz haqidagi orzu-armonlari Hazrat Navoiyning fikrlari bilan hamohang. Fitrat o‘zbek tilining so‘z boyliги, so‘z yasash imkoniyatlari, grammatik qoidalarining tugalligi jihatidan boshqa tillardan qolishmasligini ko‘p ta’kidlaydi. Quyida keltiriladigan satrlar fikrimizning isbotidir: “Tilimizda so‘z boyliги, ishtiқoq kengliги, qoida kengliги sarp-nahv ingichlari boshqa sharq tillardan qolishmas bu to‘g‘rilarda pors tilini butunlay keyinga qoldiriladir”.

Ko‘rib o‘tganimizdek, Fitrat purizm o‘zbek tilining milliyliгiga xizmat qiladi, tillarning ijtimoiy aloqasini (boshqa tillarda so‘z qabul qilishni) inkor qilmaydi va hech bir tilni kamsitmaydi. Zero Fitratning o‘zi: “bizning hech bir tilga xusumatimiz yo‘q” degan edi.

XX asr tilshunoslik merosini o‘rganar ekanmiz I bob yuzasidan quyidagi xulosalarga keldik:

XIX asr oxiri – XX asr boshlarida Markaziy Osiyoda Ziyolilar o‘rtasida milliyo‘z- o‘zini anglash hissi kuchaydi .XVI asrdan boshlangan madaniy, ma’naviy inqiroz tufayli unitilar darajaga kelib qolgan boy madaniy va ma’naviy inqiroz tufayli unutilar darajaga kelib qolgan boy madaniy va ma’naviy merosimizni tiklash, kishilar o‘rtasida o‘tmish madaniyatiga mehr- muhabbat hissini uyg‘otish harakati boshlandi.Bu harakatning yalovbardori sifatida jadidchilik maydonga keldi.

Jadidlar taraqqiyotga erishishning bosh yo‘li ma’rifat ekanini his qilganlari holda, birinchi navbatda, yangi tipdagi maktablar ochish, zamonaviy oliy maktablar tashkil etish,dunyo yangiliklarini xalq o‘rtasida tezroq targ‘ib qilish, kishilarni uyqudan uyg‘otish uchun matbuotni rivojlantirish; taraqqiyotimizga to‘siq bo‘layotgan illatlarni fosh qilish uchun teatr san’atini barpo etish, iqtidorli yoshlarni Ovruponing eng ilg‘or oliy o‘quv yurtlariga o‘qishga yuborish orqali milly ongni shakllantirish, milly g‘urur va iftixor tuyg‘ularini singdirishga urindilar.

Shu qatorda tilshunoslikka ham alohida e’tibor berildi.bu o‘rinda Behbudiy, Fitrat, Ashurali Zohiriy, Elbeklar alohida jonbozlik ko‘rsatdilar.Yoshlarning bilimli bo‘lishi maqsadida maktablar ochib, turli darsliklar yaratdilar. Jumladan, Behbudiyning ” Risolai asbobi savod”, ”Risolai jo‘g‘rofiya umroniy ” , Fitratning ”Sarf ”, ”Nahv”,Ashurali Zohiriyning ”Imlo”, Elbekning ”Yozuv yo‘llari ”singari asarlari darslik sifatida maktablarda o‘rgatilgan.

Jadidlarning tilshunoslik masalasiga alohida e’tibor berishlari bejis emas. Chunki til millatning eng asosiy belgilaridan biridir. Shuning uchun ham : ” Qachonki, bir millat tilini yo‘qotsa, o‘z dinini va millatini yo‘qotur”, -deydi Ashurali Zohiriy. Bu davr matbuotida tilimizni ajnabiy so‘zlardan imkon qadar

tozalash, o‘z tilimizni chuqur o‘rganish va unga mehr – muhabbat bilan qarashga undash bilan birga , boshqa tillarnai ham,albatta, o‘rganishga da’vat etildi. “Agar til va adabiyotimizni muhofaza qilmay , anga ajnabiy lug‘at va so‘zlarni qo‘sha bersak, biroz zamonada til va millatimizni yo‘qoturmiz . Millatimizni yo‘qotganda diyonatimiz o‘z-o‘zi ila, albatta, yo‘qolur... Bas, bizga tilimizni ajnabiy so‘zlardan muhofaza qilmoqlik eng birinchi muhim bir vazifadur ”-deya da’vat etiladi gazeta va jurnallarda .

Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak, XX-asr boshlarida Markziy Osiyoda, xususan, O‘zbekistonda ziyolilar o‘rtasida milliy o‘z-o‘zini anglash hissi kuchaydi. Milliy madaniyatni rivojlantirishga, adabiy til bilan jonli so‘zlashuv tilini yaqinlashtirishga e’tibor ortdi .Ana shu harakat tufayli tilshunoslik masalalariga alohida ahamiyat berildi.

II BOB

Fitratning “Nahv” asarida gap bo‘laklari muammosi hamda bugungi o‘zbek tilshunosligida gap bo‘laklari masalasi talqini.

Ishimizning asosiy qismi Abdurauf Fitratning “Nahv” asari tahliliga bag‘ishlanadi. Mazkur asarda o‘zbek tili sintaksisi haqida gap ketadi. Bu asar haqida : “O‘zbek nahvi to‘g‘risida mening bir tajribamdir”, - deydi muallif. Hali o‘zbek tili sintaksisining mundarijasi belgilanmagan, sintaktik tushunchalarni ifodalovchi atamalar tizimi izga solinmagan bir davrda mazkur asarning vujudga kelishi o‘zbek tilshunosligi tarixi uchun katta voqea edi.

Ma’lumki grammatikaning bir bo‘limi bo‘lgan sintaksisda so‘zlarning birikish yo‘llari, so‘z birikmasi, gap va uning turlari, gapning tuzilishi va gap bo‘laklari o‘rganiladi .¹³

Biz o‘rganayotgan asarda olim gap va gap bo‘laklari, gaplarning uyushiq bo‘laklari, so‘zlarning gapdagi vazifasi, gaplarning tuzilishiga ko‘ra turlari, sintaktik munosabat va kirish so‘zlar haqida to‘xtaladi. Kitobda bulardantashqari, punktuatsiya haqida ham qiziqarli ma’lumot beriladi. Fitrat o‘zbek tilining sintaksisi haqida gapirar ekan, dastlab gap atamasiga to‘xtaladi. Bu bejiz emas, albatta. Sintksis gap bilan birga so‘z birikmasi, so‘zlarning birikish yo‘llarini o‘rgansa-da, biroq sintaksisning asosi gap haqida ta’limotdir. Bu haqda tilshunoslar – A. G‘ulomov va M. Asqarova shunday deydi: “Nutqning grammatik forma, intonatsiya va mazmun jihatdan tugalikka ega bo‘lgan mustaqil parchasi gapdir . So‘z birikmasi bunday xususiyatlarga ega emas, u gapda qurilish materiali bo‘lib xizmat qiladi. Shuning uchun gap haqidagi ta’limot sintaksisning asosi sanaladi ”¹⁴.

¹³A.G‘ulomov, M. Asqarova .Hozirgi o‘zbek adabiy tili. “Sintaksis”, T.,1987,5-bet

¹⁴A.G‘ulomov , M. Asqarova . Hozirgi o‘zbek adabiy tili.“Sintaksis”, T., 1987.

2.1. Fitratning “Nahv” asarida bosh soʻzlar

Fitrat gapga shunday taʼrif beradi : “Bir fikr, bir oʻy anglatuvchi soʻz qoʻshimi bir gap boʻladir “¹⁵. Fitratning bu fikri hozirgi fikrlarga mos keladi. U gapning asosiy xususiyati tugal fikr ifodalash ekanini toʻgʻri taʼkidlaydi.

Qizigʻi shundaki, gap haqida umumiy maʼlumot berilgandan soʻng punktuatsion maʼlumot berishni lozim deb topadi. Punktuatsion belgilar gapdan anglashilishi lozim boʻlgan fikrning yozuvda toʻgʻri ifodalanishi uchun yordam berishi Fitratning shunday yoʻl tutishiga daʼvat etadi. Punktuatsion belgilar “ turish belgilari “ atamasi bilan nomlanadi. Fitrat 12 ta tinish belgisi va ularning vazifasi haqida maʼlumot beradi. Bular quyidagilardan iborat :

- . - nuqta- toʻxtash belgisi;
- ; - bir tinish belgisi;
- , - yarim tinish belgisi;
- ? - soʻrash belgisi;
- ! - undash belgisi;
- : - qoʻsh nuqta;
- “ “ - tirnoqlar;
- () - yoylar;
- [] - toʻrtkul yoylar;
- { } - ulkan yoylar;
- _ - chiziq;
- ... - nuqtalar.

¹⁵Fitrat. Oʻzbektili qoidolari toʻgʻrisida bir tajriba .Ikkinchi kitob . Nahv.1930.-B.5.

Bularning ishlatilishida biz o‘rganayotgan davr bilan hozirgi kundagi punktuatsiya qoidalarida sezilarli farq yo‘q. “Nuqta “, “bir tinish belgisi “, “ yarim tinish belgisi “, “so‘rash belgisi “, “qo‘sh nuqta “, “chiziq “ kabi belgilar yigirmanchi yillarda qanday ishlatilsa, hozirda ham shu tarzda qo‘llanadi. Ular nomlanishdagina bir- biridan farq qiladi. Masalan :

<i>Fitratda</i>		<i>Hozirgi tilshunoslikda</i>
Bir tinish belgisi	-	nuqtali vergul
Yarim tinish belgisi	-	vergul
So‘rash belgisi	-	so‘roq belgisi
Undash belgisi	-	undov belgisi
Qo‘sh nuqta	-	ikki nuqta
Yoylar	-	qavs
Tirnoqlar	-	qo‘sh tirnoq
Nuqtalar	-	ko‘p nuqta

Arab yozuvida tinish belgilarining izchillik bilan ishlatilmaganini e‘tiborga olsak, Fitratning yozma nutqni me‘yorlashtirish uchun tinish belgilarining naqadar katta ahamiyati borligiga alohida diqqat qilganini tushunish qiyin emas.

Fitrat gap bo‘laklarini ikkiga ajratadi: a) bosh so‘zlar; ya’ni bosh bo‘laklar; b) to‘ldirg‘ich so‘zlar, ya’ni ikkinchi darajali bo‘laklar.

U bosh bo‘laklarni, hozirgidek, ega va kesim, deb ko‘rsatadi va dastlab kesim haqida fikr yuritadi.”Gapdagi so‘zlarning oxirida kelgan, o‘z kelish bilan so‘z qo‘shimini “gap”ga aylantirgan so‘z – “kesim” so‘zidir “,-deydi u¹⁶

¹⁶Fitrat. Nahv. Samarqand-Toshkent. 1930. B.6.

Fitrat kesimga to‘g‘ri ta‘rif beryapti. Lekin bu yerda bizni qiziqtirayotgan narsa olimning tushuntirish usulidir. Uning uslubi nihoyatda o‘ziga xos. Olim ikkita jumlani keltiradi:

Qushlar bog‘chada ertalab...

Cho‘lpon yaqinda yaxshi bir she‘r...,

ularning kesimini yozmaydi va shunday deydi: “Yuqoridagi ikki so‘z qo‘shimidan hech birtasi “gap” bo‘la olmaydir, bulardan tugal “o‘y” anglashilmaydir. Bu ikki so‘z qo‘shilishidan qay birini eshitkach, so‘z kesildi, gap bitdi, deb o‘ylamaymiz...”¹⁷ Ya‘ni ularning har ikkisida ham tugal fikr yo‘q. Bu so‘zlar yig‘indisini gapka aylantirish uchun *sayraydir, yozdi* so‘zlari jumla oxiriga qo‘shiladi. Ana shu gapni tamomlagan intonatsiyani tugallagan, Fitrat aytganidek, “so‘zni kesgan so‘z” kesim hisoblanadi. Shu tariqa kesim atamasining mohiyatini o‘ziga xos tarzda tushuntiradi va shu bilan birga, kesim atamasining kelib chiqishi haqida ma‘lumot beradi.

Tilshunoslikka oid adabiyotlarda hamma ilmiy atamalar ana shunaqa tarzda izohlansa, til o‘qitish jarayoni yengillashardi. Buning uchun tildagi har bir termin til hodisalarining mohiyatini aniq aks ettirgan bo‘lishi kerak. Boshqacharoq aytsak, termin hodisaning mohiyatiga mos kelishi shart. Biz ko‘rib o‘tgan kesim atamasi hodisaning mohiyatiga to‘g‘ri kelgan. Chunki gapning kesimi undagi fikrni kesadi, ya‘ni tugallaydi. Fitrat til hodisalarini tekshirar ekan, atama bilan hodisa o‘rtasidagi o‘zaro bog‘lanishni ochib beradi. Bu narsa undagi tafakkurning kuchini hamda pedagogik qobiliyatining yuqori ekanligini ko‘rsatadi.

Fitrat gap bo‘laklari tahlilini nega kesimdan boshladi? 1925-yilda nashr qilingan “O‘zbekcha til saboqlig‘i” degan asarda ega va kesimga boshqacha ta‘rif beriladi. Ushbu asar mualliflari ega haqida shunday yozadilar: “Gap kim vanima

¹⁷ Fitrat. Nahv. Samarqand-Toshkent. 1930. B.6.

narsa to'g'risida aytilgan bo'lsa, shul kishi,shul narsani bildirgan so'z ega deb ataladi ”¹⁸.

O'sha davrda nashr qilingan boshqa asarlarda dastlab ega tahlil qilinadi. Fitrat ega bilan subyekt, kesim bilan peredikatni bir-biridan farqlaydi. Ularning ba'zan mos kelishini,ba'zan mos kelmasligini to'g'ri ta'kidlaydi vamisollar yordamida tushuntirib beradi. Olimning fikricha,gap kim,nima to'g'risida aytilsa,shu ega bo'ladi degan ta'rif faqat mantiq ilmidagina o'zini oqlaydi,til ilmida esa ilmiy haqiqatga to'g'ri kelmaydi. Fitrat bu haqda quyidagicha yozadi: ”Demak, “Nahv” kitoblarida ko'rganimiz jumla kim,nima to'g'risida aytilsa, shu ega bo'ladi degan ta'riflar o'ylovga, ya'ni zehniy gaplarga ko'ra to'g'ri bo'lsa ham, tildagi gaplarga ko'ra yanglishdir . Chunki gap kimning,nimaning to'g'risida aytilsa,shu kim, nimaning gapning mavzui bo'ladir .Biroq har vaqt tildagi ega so'zi bo'lmaydir “¹⁹

Fitrat gapning egasini shunday aniqlaydi: ”Shu kesim so'zlaridan so'zlaridan har birtasini kim?,nima ? so'roqlari bilan aytganda gapdagi qaysi so'z bilan javob berilsa, shu so'z gapning ega so'zi yoki soddacha ”ega”si bo'ladir”²⁰.

Ma'lumki, an'anaviy tilshunoslikda ham gap bo'laklari ko'pchilik hollarda so'roq berish usuli bilan aniqlanadi. Egani Fitrat aytgan tarzda belgilash, uning kesimga tobe ekanini, unga bog'lanib kelganini ko'rsatadi.

Fitratning bufikri ham egani kesimning subyekt valentligini to'ldiruvchi va u bilan moslashuv munosabatida bo'luvchi bosh kelishikdagi sintaktik shakldir deya e'tirof etuvchi yangicha yo'nalishdagi nazariy sintaksisdagi qarashlar bilan uyg'undir ²¹.

Ko'rinib turibdiki, Fitrat bosh bo'laklar masalasini an'anaviy tilshunoslikdanboshqacharoq tarzda hal etgan va to'g'ri xulosaga kelgan .

¹⁸ Munavvar Qori va b.O'zbekcha til saboqlig'i. Toshkent. 1925

¹⁹Fitrat.nahv .Samarqand-Toshkent.1930.B.9.

²⁰Fitrat.Nahv. Samarqand-Toshkent . 1930,7-bet

²¹ Mahmudov N. Nurmonov A.O'zbek tilining nazariy gramatikasi .T.,1995,77-bet

2.2. Fitratning “Nahv” asarida to‘ldirg‘ich so‘zlar

Fitratning “Nahv” asaridagi “to‘ldirg‘ich so‘zlar” hozirgi ikkinchi darajali bo‘laklarga to‘g‘ri keladi. Olim to‘ldirg‘ich so‘zlarga quyidagicha ta’rif beradi: “Ega bilan kesimdan anglashilg‘on o‘yning kamchiliklarini to‘ldirmoq uchun gapka turli so‘zlar qo‘shiladi. Bu qo‘shilg‘on so‘zlar ham ega bilan kesimga o‘xshab gapning bo‘laklari bo‘ladi”²²

Olim qo‘llayotgan to‘ldirg‘ich termini hozirgi to‘ldiruvchi atamasiga to‘g‘ri keladi, lekin ularning ma’no hajmi bir-biridan katta farq qiladi. Fitratning to‘ldirg‘ich atamasi gapda ikkinchi darajali bo‘laklarning hammasini o‘z ichiga olsa, to‘ldiruvchi ikkinchi darajali bo‘laklarning bir turidir.

Fitratning fikricha, o‘zbek tilida sakkizta “to‘ldirg‘ich”, ya’ni ikkinchi darajali bo‘laklar mavjud. Ular quyidagilar: *tushum to‘ldirg‘ichi, chog‘ to‘ldirg‘ichi, boorish to‘ldirg‘ichi, chiqish to‘ldirg‘ichi, o‘run to‘ldirg‘ichi, nechunlik to‘ldirg‘ichi, nechuklik (hol) to‘ldirg‘ichi.*

Bu fikrlar mohiyatda hozirgilardan u qadar farq qilmasada, tasnifning biz uchun yangilik ekanini nazarda tutib, bu masalani oydinlashtirishga baholi qudrat harakat qilamiz.

Tushum to‘ldirg‘ichi bu hozirgi o‘zbek tilshunosligida vositasiz to‘ldiruvchidir. Asarda tushum to‘ldirg‘ichi shunday izohlanadi: “*Ahmad oldi. Karim ko‘rdi. Quyosh isitdi, deganimizda anglashilg‘on o‘ylar to‘la emas. Bu gaplarni eshitgan kishi to‘la bir o‘y anglatmoq uchun kimni?, nimani? deb so‘raydir. Mana shu so‘roqlarga javob berish uchun Kitobni, Ergashni, yerni degan so‘zlarni yuqoridagi gaplarga qo‘shamiz ...*

Bu gaplardagi olmoq, ko‘rmoq, isitmoq ishlarining Ahmaddan Karimdan Quyoshdan sodir bo‘lub kitobg‘a, Ergashga, yerga tushkani bilinadi. Shuning

²²Fitrat .Nahv. Samarqand –Toshkent, 1930, 9-bet

uchun bu gaplardagi kitob, Ergash ham yer soʻzlariga “tushum “ toʻldirgʻichi deymiz . Tushum toʻldirgʻichining belgisi “ni” dir”²³.

Fitrat tushum toʻldirgʻichi atamasidagi tushum soʻzining tushmoq harakatidan olinganligini qayd etadi. Hozirgi tilshunoslikda bu atama kelishikka nisbatan qoʻllaniladi, gap boʻlaklariga nisbatan esa toʻldirgʻich (toʻldiruvchi) atamasining oʻzi ishlatiladi .

Maʼlumki, vositasiz toʻldiruvchi harakat oʻziga bevosita oʻtgan predmetni koʻrsatadi va tushum kelishigidagi soʻz bilan ifodalaniladi, baʼzan belgisiz qoʻllanishi ham mumkin . Bu haqda tilshunoslar A. Gʻulomov va M.Asqarova quyidagilarni yozadi: “... vositasiz toʻldiruvchi soʻzlovchi va tinglovchi avvaldan maʼlum boʻlgan predmetni ifodalaganda, tushum kelishigi affiksi qatnashadi. Shu turdagi predmet umuman ifodalaganda, tushum kelishigi affiksi qatnashmaydi”²⁴

Abdurauf Fitrat ham tushum toʻldirgʻichining belgisiz qoʻllanishi mumkinligini taʼkidlaydi.Uning quyidagi fikrlari hozirgi qarashlar bilan bir xildir: “Tushum toʻldirgʻichiga “ni” belgisining qoʻshilmay qolgʻoni ham boʻladir . Biroq biz bilamizkim, “ni“ qoʻshimchasi qoʻshilgʻon tushum toʻldirgʻichlarining maʼnolarida aniqlik bor, masalan, “Ahmad kitobni oldi “ deganda qaysi va qanday kitob olgʻoni aniq .Lekin “ni” qoʻshimchasini tushurib “Ahmad kitob oldi“deganimizda Ahmadning qanday boʻlsada bizga maʼlum boʻlmogʻon bir yo birdan ortiq kitob kitob olgʻoni anglashiladir .²⁵ Bu yerda ham kitob soʻzining kitob soʻzining belgisiz qoʻllanganida noaniqlik borligi taʼkidlanyaptiki, olim yuqoridagi tilshunoslarga nisbatan bu masalani aniqroq ochib beryapti.U bizning eʼtiborimizni ikki narsaga jalb qilyapti: birinchidan kitobning nechtaligi nomaʼlum; ikkinchidan,qaysi kitobni olganligi nomaʼlum.“Abdurauf Fitrat oʻzbek tilshunosligida vositasiz toʻldiruvchining belgili yoki belgisiz qoʻllanilishini

²³Fitrat .Nahv . Samarqand –Toshkent,1930, 10-bet

²⁴A.Gʻulomov, M. Asqarova . “Hozirgi oʻzbek adabiy tili.Sintaksis”,Toshkent ,1983, 113-bet.

²⁵Fitrat .Nahv. Samarqand-Toshkent, 1930,11-bet

birinchilardan bo'lib qayd etgan va uning bu fikrlari keyingi tilshunoslar uchun asosiy nazariy manba bo'lgan"²⁶.

Borish to'ldirg'ichining qo'shimchasi –ka, -ga dir .Bu to'ldirg'ich olimning so'zlari bilan aytganda, “gapning boshqabir bo'lagidan o'ziga tomon bir harakat, bir uzanish borligini bildiradir”. Ko'rinadiki bu to'ldirg'ich hozirgi o'rin holiga mos keladi. Tilshunoslar A.G'ulomov, M.Asqarovalar “Hozirgi o'zbek adabiy tili “ kitobida o'rin holi harakatning bo'lishidagi umumiy o'rin ma'nosini anglatishi va undagi o'rin semasini anglatishining uchta turga bo'linishini qayd qiladilar:

1)harakatni bo'lish o'rnini bildiradi: *Ko'chada uni uchratdim.*

2) harakatning yo'nalish o'rnini bildiradi : *U maktabga (tomon) ketdi.*

3)harakatning chiqish,boshlanish o'rnini anglatadi: *U aftobusdan tushdi.*²⁷

Fitrat aytgan borish to'ldirg'ichi o'rin holining ikkinchi turiga, ya'ni harakatning yo'nalish o'rnini bildiradigan turiga to'g'ri keladi.O'rin holining bu turi –gacha, -ga qadar, -ga dovur ko'rinishida ham ifodalanadi.Bu vaqtdaharakatning bo'lishidagi,davomidagi eng keyingi o'rin, chegarani anglatadi: *U Samarqandga qadar bordi.*

Fitrat ham bu masalani alohida qayd qiladi: Borish to'ldirg'ichiga -cha dovur qo'shilg'onda harakat va uzanishning so'ng uchi bo'ladir: *Buzoqning yugurgani og'ilg'acha.*²⁸

Chiqish to'ldirg'ichi harakatning boshlanish o'rnini bildiradi va belgisi –dan qo'shimchasidir. Olim bu to'ldirg'ichning belgisiz qo'llanmasligini ta'kidlaydi va misollarni keltiradi.

1.Yaxshi so'z bilan ilon inidan chiqadir,

²⁶Qurbonova M. Fitratning tilshunoslik me'rosi . Filol.fanlari nomzodi...diss. T:1993

²⁷ G'ulomov A, Asqarova M. Hozirgi o'zbek adabiy tili.Sintaksis. T.,1987,118-bet.

²⁸Fitrat.Nahv. Samarqand – Toshkent.1930, 11-bet

Yomon soʻz bilan pichoq qinidanchiqadir .

2.Yomondan har kim bezadir

Koʻrinadiki, chiqish toʻldirgʻichi baʼzan holga (oʻrin, payt), baʼzan esa toʻldiruvchiga teng keladi. Haqiqatni haminidan, qinidan soʻzlari bilan yomondan soʻzlari orasida deyarli farq yoʻq; ularning morfologik shakli bir xil, gapdagi sintaktik oʻrni ham bir xil. Har uchallasida ham harakatning boshlanish oʻrni anglashiladi (chiqish harakati *indan*, chiqish harakati *qindan*, bezish harakati *yomondan*, yaʼni yomon odamdan sodir boʻladi, boshlanadi)

Fitratning ushbu fikrlari hozirgi oʻzbek tili sintaksisida toʻldiruvchi va holning chegarasini aniqroq belgilash zarurligini koʻrsatadi.

Chiqish toʻldirgʻichi baʼzan sabab, vosita maʼnosini, baʼzan bir qism maʼnosini ham bildirishi mumkin. Asarda quyidagi misollar keltiriladi:

a) Tomga shotidan chidim (sabab, vosita)

b) Kitobdan uchbet oʻqidim (qism).

Oʻrun toʻldirgʻichining belisi –da qoʻshimchasidir . Olim bu toʻldirgʻichning ham belgisiz qoʻllanmasligini aytadi. Oʻrin toʻldirgʻichi oʻrin holiga toʻgʻri keladi, harakatning boʻlish oʻrnini bildiradi . Bu oʻrin holi koʻmakchi bilan ham kelishi mumkin: *olam aro, maydon ichra* kabi.

Chogʻ toʻldirgʻichi haqida Fitrat quyidagilarni yozadi: “Oʻyning zamonini bildirgan gap boʻlaklariga chogʻ toʻldirgʻichi deymiz . Buning ham belgisi –*dadir*. Choʻgʻ toʻldirgʻichi *endi, erta, kecha, kun, oqshom* soʻzlariga oʻxshagan chogʻ otlari boʻlgʻonda unga –da belgisi qoʻshilsa-da, qoʻshilmasa-da boʻladir .”²⁹ Anglashiladiki, chogʻ toʻldirgʻichi hozirgi payt holidir.

²⁹Fitrat. Nahv. Samarqand-Toshkent, 1930, 12-bet

Birgalik to'ldirg'ichiga Fitrat quyidagi misolni keltiradi: Mungli kecha ming dard ila o'tdi. Olim ushbu to'ldirg'ich haqida: "Birgalik to'ldirg'ichi gapning shunday bir bo'lagidirkim, uning gapning boshqa bir bo'lagi bilan yo'ldoshligi, birgaligi anglashiladi. Buning belgisi bilan, *-bila* dir. Ora *-sira* ila ham ishlatiladi " *,-deydi* va bu to'ldirg'ichning birgalik ma'nosini to'rt turga bo'lib ko'rsatadi:

1. O'rtoqlik shaklida birgalikni bildiradi : *Azizbek sipohlar bilan Samarqand qopqasiga tomon harakat qildi.*
2. Qurollik shaklida birgalikni bildiradi : *Tabiat chechaklar bilan bezanadir.*
3. Sabablik shaklida birgalikni bildiradi: *dard birla kechalar yig'lar soz.*
4. Zamondoshlar shaklida birgalikni bildiradi: *Erta bilan senga xat yozdi.*

Bu yerda tasnifning biz uchun ahamiyati yo'q .Shunisi muhimki, olim chog' to'ldirg'ichi deganda hozirgi payt holini va vositali to'ldiruvchini tushunadi. Demak, bu to'ldirg'ich ham hozirgi ikkinchi darajali bo'laklarning qaysi birigadir mos keladi.

Nechunlik to'ldirg'ichi harakatning sababini bildiradi, belgisi uchundir. O'quvga, yozarga, yozgali, kabi shakllar ham shu turga kiritiladi .Ko'rinadiki, bu to'ldirg'ich hozirgi sabab va maqsad hollariga to'g'ri keladi.

Nechuklik to'ldirg'ichi esa o'ydin anglashilgan ishning nechun bo'lganini bildiradi " . Olim uning quyidagi ko'rinishlari haqida to'xtaladi:

1. *-Ip (-ib)qo'shilib .U kulib gapirdi*
2. *U xatni yaxshi yozdi.*
3. *Men insoncha ishladim .*

Bu to'ldirg'ich hozirgi ravish holidir . Olim asarning shu joyida o'zbek tilshunosligida birinchi bo'lib hol atamasini qo'llagan, bu atama hozirgi fanda kengroq ma'noda faol ishlatiladi.

Kitobning "Kelishkanlik" deb nomlangan qismida Fitrat ega bilan kesim o'rtasidagi muvofiqlik haqida gapiradi . Bu hodisa hozirgi tilshunoslikda moslashuv deyiladi . "Gapda ega so'zi birlik bo'lganda kesim so'zining ham birlik bo'lishi, albatta, lozimdir"³⁰, -deb yozadi olim . "O'zbek tili grammatikasi" dan olingan quyidagi fikrlar Fitratning fikri bilan mushtarakdir : "Bunda hokim so'zning formasi o'zgarishi bilan tobe so'zning ham formasi o'zgaradi: tobe so'z o'z formasi hokim so'zning formasiga muvofiqlashtiradi, moslashtiradi"³¹.

Shu o'rinda bir narsani ta'kidlash kerakki, ba'zi hollarda ega va kesim to'la moslashmasligi mumkin . Bu hol o'zbek tili uchun normal hodisa deb qaraladi. Bu haqda yuqorida esga olingan darslikda shunday deyiladi: "Ega ko'plikdagi III shaxs olmoshi bilan yoki ot bilan ifodalanganda, kesim vazifasidagi so'z u bilan shaxs jihatidan moslashishi shart, son jihatidan esa shart emas" esa shart emas"³². Fitrat ham shu holatni nazardan soqit qilmaydi. "Ega ko'plik bo'lganda kesim so'zi ot yoki sifat bo'lsa, oralarida kelishkanlik zarur emas" deyiladi. "Nahv" kitobida ushbu misol keltiriladi: Bular yog'och – Bular yog'ochlar³³. Har ikki ko'rinishda ham kelishi mumkin. Bundan tashqari kesim vazifasida kelgan fe'l bo'lsa, bunday paytda ham ega bilan kesim o'rtasida moslashuv bo'lmasligi mumkinligi to'g'ri ko'rsatiladi.

Fitrat aniqlovchilarni to'ldirg'ichdan ajratgan holda aniqlov uyushmasi ostida o'rganadi. Birikmali bo'laklarni esa gapning uyushgan bo'laklari deb nomlaydi. Gapning uyushgan bo'laklari mavzusida keltirilgan muammolarni professor S. Ashirboyev o'z maqolasida oydinlik kiritib hal qiladi. Fitratning

³⁰Fitrat. Nahv, 24-bet.

³¹O'zbek tili grammatikasi. 2 tomlik, 2-tom. Sintaksis, T. , 1976, 15-bet.

³²O'zbek tili grammatikasi. 2 tomlik, 2-tom. Sintaksis, T. , 1976, 17-bet

³³Fitrat. Nahv , 24-bet.

uyushgan bo‘laklari ”uyushqan ” so‘zining lug‘aviy tushunchasiga yaqin bo‘lgan,hozirgi kunda ”kengaygan bo‘lak ”, ravishdosh, sifatdosh, harakat nomi o‘ramlari deb tushiniladigan hodisalarni umumlashtiradigan ma’noda qo‘llangan, boshqacha aytganda, so‘z birikmasi doirasida qaraydi va tobe va hokim komponentdan iborat tuzilmani ko‘zda tutadi.

Fitratning ”Bir gapda ikkita bosh so‘z sakkizta to‘ldirg‘ich borlig‘ini ko‘rdik . Mana shul o‘n bo‘lak gapning asosiy bo‘laklari snahul asosiy bo‘laklar gapda yolg‘iz-yolg‘iz kelgani kabi ko‘proq boshqa so‘zlar bilan ham uyushib keladir . Biz mana shunday bo‘laklarga gapning uyushgan bo‘laklari soddacha uyushmalar deymiz”³⁴ - degan ta’rif beriladi va unga *Sen maktabning bog‘iga chiq. Kecha kelgan kishi sening otang* kabi misollarni keltiradi.Bugaplarda uyushgan bo‘laklar yo‘qligi ko‘rinib turibdi.

Fitrat gapning uyushgan bo‘laklarini ikkiga bo‘ladi.

1.xususiy uyushmalar.

2.umumiy uyushmalar.

Umumiy uyushmalarning o‘zini aniqlov va sifat uyushmalariga bo‘ladi. Aniqlov uyushmasi hozirgi qaratqich va qaralmish munosabatidagi so‘z birikmasiga to‘g‘ri keladi.

Fitratning ”Har aniqlov uyushmasida ikki ot yo sufat bo‘ladir” –degan fikri alohida tahlilni talab etadi, ya’ni aniqlov uyushmasida sifatning ishtiroki haqidagi fikri hozirgi nazariy qoidalarimizga to‘g‘ri kelmaydi, chunki aniqlov uyushmasi aniqlov uyushmasi to‘g‘risida fikr yuritir ekan,uning qaratqich kelishigidagi so‘z va egalik (olmosh izlari) affiksini olgan so‘zdan iborat ekanligini ko‘rsatgan. Bunday birikmada sifatning ishtiroki aslida mumkin emasligi barchaga ma’lum .

³⁴Fitrat . Nahv.33-bet

Bu o‘rinda, ehtimol, otlashgan sifatlarni ko‘zda tutgan bo‘lishi mumkin, afsuski, bu holatga Fitrat misol keltirgan emas”³⁵.

Fitrat –ning affiksining uslubiy qo‘llanmasligiga ham to‘xtaladi va fors tilidagi izofalarni o‘zbek tiliga aylantirganda, bu qo‘shimchasiz aylantirish zarurligini (umid buyrug‘i, tilak yurti kabi) uqtiradi va ”majoz aniqlikni ko‘bda istamaydir” deb qo‘shib qo‘yadi.

” Sufat uyushmasi” ning hozirgi tushunchalar bilan aytganda, sifat+ot, son+ot, olmosh (ko‘rsatish)+ot tipidagi birikmadan iboratligini ko‘rsatadi. Bunda sifat+ot munosabatidagi ikkinchi qismni –otni **sufatli** termini bilan yuritadi . Sufat va ot birgalikda **sufat uyushmasini** tashkiloti hamda u ham o‘nta gap bo‘laklaridan biri bo‘lib kelishi aytiladi. Bunday birikmada sifatning doimo ot oldidan kelishini ham eslatib o‘tadi. Fitrat izohlovchini hamnazardan qochirmaydi. Fitratda izohlovchi termini qo‘llanmagan, lekin *Eshmat qo‘rboshi*, *Hasan tog‘a* kabi misollarida ”sifat uning laqabi, amali bo‘lsa, sufatli sufatdan burun keladir ” –deb ko‘rsatadi. +

Fitrat harakat nomi, sifatdosh, ravishdosh va ayrim fe‘l shakllari(-moqchi, -arlik, -gulik affiksli) hokim bo‘lgan yoyiq bo‘laklarni xususiy uyushma deb yoritadi va bir gap bo‘lagi sanaladi deya yoritadi. M: *Men kitob o‘qimoqnisevaman. Bizga kulganlarga biz ham kulamiz.*

Fitrat hokim qismi ravishdosh va sifatdoshlardan ifodalangan va predikativlikni o‘zida aks ettirmagan sintaktik qurilmalarning barchasini uyushma bo‘lak hisoblaydi. Masalan, *Bu kecha kitobini yozib bitirgali o‘turg‘on edim* gapida *kitobimni yozib bitirgali* bo‘lagi uyushma bo‘lak hisoblanishini ta’kidlaydi.

³⁵S. Ashirboyev .O‘zbek tilshunosligining dolzarb masalalari. Abdurauf Fitratning uyushiq bo‘lak talqini. T . , 2011. 24-bet

Demak, Fitrat gapning uyushqan bo‘laklari deganda bir markazga (hokim so‘zga) birlashgan so‘zlarning yaxlit holda bir gap bo‘lagi vazifasini bajarishini asos qilib olgan .

Shunday qilib, o‘zbek tili sintaksisining fan sifatida shakllanishida Fitratning xizmatlari katta. U birinchilardan bo‘lib o‘zbek tili sintaksisi haqida izchil ma’lumot berdi. ”Nahv ” asarida bayon qilingan ko‘pgina masalalar keyingi o‘zbek tilshunoslari tomonidan rivojlantirildi va ularga aniqliklar kiritildi.

2.3. Bugungi o‘zbek tilshunosligida gap bo‘laklari muammosi

O‘zbek tilisintaksisi tilshunoslikning alohida bo‘limi sifatida dastlab Fitrat tomonidan “ nahv “ atamasi ostida o‘rganildi.bundakeltirilgan gap bo‘laklari hozirgi sintaksis uchun asosiy poydevor bo‘lib xizmat qilgan. Keyinchalik soddagap sintaksisi haqidagi ta’limotning rivojlanishida A.G‘ulomov, M.Asqarovalarning “Hozirgi zamon o‘zbek tili. Sintaksis”, H. Komilovaning “Gapda so‘zlarning bog‘la -nishi” (Toshkent,1995), Safayevning “Bosh va ikkinchi darajali bo‘laklar”, O‘z FA Til va adabiyot instituti ilmiy xodimlari tomonidan ikki jildli “hozirgi o‘zbek adabiy tili (Toshkent,1966) va ikki jildli “O‘zbek tilining grammatikasi “(Toshkent, 1975) asarlarining yaratilishi o‘zbek tilshunosligining katta yutug‘i bo‘ldi. Unda sodda gap sintaksisi yangi kuzatishlarbilan to‘ldirildi.

Ilgari gaplar obyektiv voqelikni ifodalashi va predikativ belgisiga ko‘ra dixotomik tamoyil asosida ikki guruhga –sodda va qo‘shma gaplarga ajratilgan bo‘lsa keying ikki asarda gaplar ana shu belgisiga ko‘ra politomik tamoyil asosida sodda, murakkab, va qo‘shma gaplarga ajratildi. Sodda va qo‘shma gaplar yuqoridagi belgilarga ko‘ra zidlanishning ikki qutbida tursa, murakkab gaplar bu zidlanuvchilardan har ikkisining muayyan belgilarni o‘zida namoyon etuvchi oraliq holat qilib ko‘rsatiladi.

Ta'kidlash kerakki, yuqorida sanab o'tilgan asarlarning barchasida sintaksisning markaziy birligi bo'lgan gapning asosiy belgisi sifatida predikativlik e'tirof etiladi. Predikativlik rus tilshunosligida atributiv mantiq ta'sirida shakllangan ega bilan kesimning munosabati sifatida belgilanadi. Gap bo'laklari ham predikativ munosabatni ifodalashda ishtirok etish darajasiga ko'ra ikki guruhga bo'linadi : 1) predikativ munosabatda ishtirok etadigan bo'laklar

2) predikativ munosabatda ishtirok etmaydigan bo'laklar.

Birinchi guruh gap tuzilishining asosi, zaruriy bo'laklari hisoblandi va ular bosh bo'laklar nomi bilan yuritildi. Atributiv mantiqda hukm a'zolari bo'lgan subyektga ega, predikatga esa kesim tenglashtirildi. Mantiqda predikat subyektning belgisini ifodalovchi qism sifatida qaralgani uchun grammatikada ham kesim eganing belgisini bildiruvchi bo'lak deb qaraldi. Shundan kelib chiqqan holda gapda absolyut hokim bo'lak ega, nisbiy hokim bo'lak (ikkinchi darajali bo'laklarga nisbatan hokim, egaga nisbatan tobe qism) kesim deb hisoblandi.

Predikativ munosabat tarkibiga kirmaydigan bo'laklar gapning konstruktiv bo'lmagan, nozaruriy, shu sababli ikkinchi darajali bo'laklari sanaladi. Bosh bo'laklar ikki a'zo, ikki cho'qqidan iborat deb qaralgan tufayli bu bo'laklarning gapda qatnashishiga ko'ra ular ikki guruhga bo'lindi :

1) bir sostavli gaplar;

2) ikki sostavli gaplar .

Bir sostavli gaplarning monografik tadqiqiga bag'ishlangan I.Rasulovning " Hozirgi o'zbek adabiy tilida bir sostavli gaplar " (1974) nomli yirik tadqiqoti dunyoga keldi.

Gapning shakliy tuzilish birliklari gap bo'laklari rukni ostida o'rganilgandan buyon gap bo'laklarini belgilash tamoyili sifatida bu birliklarning gapdagi boshqa sintaktik birliklar bilan tobe munosabati belgilandi. Gap bo'laklari faqat tobe

munosabat asosidagina aniqlandi. Tobe munosabatga kirishmaydigan gapning sintaktik a'zolari gap bo'laklari ruknidan tashqarida qoldi. Tengmunosabatdagi bo'laklar ham boshqa qaysidir bo'lakka tobe munosabatda bo'lishiga qarab gap bo'agi tarkibiga kiritildi. Natijada gapning tarkibida ishtirok etuvchi va mazmuniga qo'shimcha ma'no eltuvchi sintaktik birliklar gapning sintaktik tuzilish birliklari sirasidan chiqarildi.

Undalmalar, kirish qurilmalar bo'yicha uzoq yillar ilmiy tadqiqot olib borgan A. Sayfullayev, ularning gap tarkibida muayyan semantik- funksional qimmatga ega bo'lishiga qaramay, gap bo'laklari sanalmasligiga e'tiroz bildirdi, undalma va kirish qurilmalarni ham gap bo'laklari qatoriga kiritishga intildi. Gap bo'laklarini an'anaviy ikki darajaga bo'lishga tanqidiy yondashgan holda uch darajaga ajratishni ma'qul ko'rdi va kirish qurilmalari, undlmalarni uchinchi darajali bo'laklar sirasigakiritishni tavsiya etdi.

Bu o'zbek tilshunosligida us tilshunosligi andazalari asosida vujudga kelgan gapni bo'laklarga ajratish tamoyiliga ilk e'tirozning namoyishi edi. Afsuski, shunday katta muammoni ko'tarib chiqqan A. Sayfullayev gapni bo'laklarga ajratishning mavjud tamoyili qanday kamchiliklarga ega ekanini, uni bartaraf qilish yo'llarini, qanday tamoyilga suyansa, ziddiyat bartaraf bo'lishi mumkinligini ko'rsatib berolmadi. Lekin mavjud tamoyilga bildirilgan e'tirozning o'zi o'zbek tilshunosligida bir voqea bo'ldi va keyingi tadqiqotchilarni bu muammo bo'yicha chuqur o'ylashga da'vat etdi.

“Gap haqida sintaktik nazariyalar “ kitobining nashr etilishi (Toshkent, 1988) gapda ikki cho'qqili (ikkita bosh bo'lakni e'tirof etuvchilar) nazariyaning kelib chiqish ildizlari, gapni bo'laklarga ajratish tamoyillari va unda yo'l qo'yilgan kamchiliklarni ko'rsatib berishda katta ahamiyatga ega bo'ldi. Unda turkiy tillar sintaktik tuzilishida eng muhim konstruktiv bo'lak kesim ekani shuning uchun turkiy tillar uchun bir cho'qqili nazriya muvofiqligi, gap bo'laklarini gapning ana shu mazmuniy va grammatik markazi bo'lgan kesim bilan munosabatiga qarab

belgilash lozimligi ta'kidlandi . Ayni paytda, gap bo'laklari ikkinchi darajaga emas bir necha drajalarga bo'linishi mumkinligi ko'rsatildi.

O'zbek tili sodda gap sintaksisining takomillashuvida N. Mahmudov va A. Nurmonovning "O'zbek tilining nazariy grammatikasi " kitobi katta ahamiyatga ega bo'ldi. Bu asar o'zbek tili sintaksisini yangicha qarashlar, yangi yo'nalishlar bilan boyitdi. Bu kitobda gap bo'laklari yuzasidan turlicha fikrlar bayon qilinib o'rganilgan .

Gap bo'laklarining shakli va ma'nosi o'rtasidagi munosabatlar izohlanadi. "Gap bo'laklari lisoniy belgi sifatida shakl va ma'no birligidan iborat. Gap bo'lagining o'zi ikkilangan xususiyatga ega bo'lishi bilan birga, uning tarkibidagi shakl va ma'no unsurlari ham ikkilangandir. Gap bo'laklarining shakli deganda, odatda, sintaktik butunlik sifatida uning sintaktik shakli, ma'nosi deganda esa, sintaktik ma'nosi nazarda tutiladi. Demak, gap bo'laklarining shakl va mazmuni o'rtasidagi munosabat aslida sintaktik shakl va sintaktik ma'no o'rtasidagi munosabatdir "³⁶.

Gap bo'laklarining bu ikki tomoni o'zaro uzviy bog'lanib, bir butunlikni tashkil qiladi. Shu bilan birga, ularning har qaysisi ma'lum mustaqillikka ega . Shuning uchun ham bu ikki qurilish birliklari o'rtasida ma'lum xoslanish bo'lishi bilan birga (subyektning ega uchun, predikatning kesim uchun, obyektning to'ldiruvchi uchun xoslanishi) nomuvofiqlik holatlari ham kuzatiladi. Masalan, subyekt ma'nosi ega sintaktik shakli orqali (men keldim), aniqlovchi sintaktik shakli orqali (mening kelishim), kesim sintaktik shakli orqali (kelgan men) ifodalanishi mumkin . Bu esa, shakl va mazmun o'rtasidagi qarama- qarshilik birligining gap bo'laklari orqali namoyon bo'lishini ko'rsatadi.

Shu o'rinda to'ldiruvchilarning mazmuniy sintagmatik munosabati haqida to'xtalishni lozim topdik. To'ldiruvchi kesim bilan sintagmatik munosabatga

³⁶N. Mahmudov , A. Nurmonov. O'zbek tilining nazariy grammatikasi.- T; O'qituvchi , 1995.-B.64.

kirishib, utalab etgan sintaktik shaklda va bu shakily sintagmatik munosabat kishi ongida aks etgan borliqdagi ma'lum unsurlar munosabatini ifodalaydi. Shakliy sintagmatik munosabat orqali ifodalangan kishi ongida aks etuvchi borliqdagi unsurlar munosabati mazmuniy sintagmatik munosabat hisoblanadi.

To'ldiruvchining mazmuniy sintagmatik munosabati deyilganda, to'ldiruvchi vaziyatidagi sintaktik shakl ifodalagan obyekt bilan kesim vaziyatidagi sintaktik shakl ifodalagan predikat o'rtasidagi munosabat nazarda tutiladi. Ayrim hollarda, xususan, predikat majhullik nisbatidagi fe'l morfologik shakli orqali ifodalanganda, predikat subyekt (harakatni yuzaga chiqaruvchi) ko'makchili morfologik shakl orqali ifodalangan holda to'ldiruvchi sintaktik vaziyatni egallaydi. Masalan: *Kitob talaba tomonidan o'qildi*. Bu vaqtda shakliy va mazmuniy sintagmatik munosabat o'rtasida nomuvofiqlik mavjud bo'ladi.

Shuningdek, to'ldiruvchi- kesim shakily sintagmatik munosabati o'rin-predikat mazmuniy sintagmatik munosabatini ifodalaydi. Bu o'rinda to'ldiruvchi vaziyatidagi sintaktik shakl tushum kelishigidagi ot morfologik shakli orqali ifodalanadi. Natijada tushum kelishigidagi o'rin-joy oti xuddi obyekt kabi tasavvur qilinadi. Masalan, *Cho'lni bo'ston qilgali keldik*

Ba'zan og'zaki nutqda mavjudlik bildiruvchi subyekt – predikat munosabati to'ldiruvchi- kesim shakily sintagmatik munosabati orqali ifodalanadi. Bu holda to'ldiruvchi vaziyatidagi sintaktik shakl chiqish kelishigidagi ot morfologik shakli orqali namoyon bo'ladi. Masalan : - O'g'ildan nechta ?

-(O'g'ildan) uchta.

Bunday hollarda chiqish kelishigidagi ot morfologik shakli bilan variantlilikni vujudga keltiradi : *O'g'ildan nechta ? - O'g'il nechta ? Do'stlardan ko'p - Do'stlarimko'p* va boshqalar .

Ayrim hollarda butun va bo‘lak munosabatidagi mazmuniy unsurlarning bo‘lak qismi moddiy ifodasiga – morfologik shakliga ega bo‘lmaydi. Natijada butun – bo‘lak munosabati butunnnning o‘zida aks etadi va butun chiqish kelishigidagi otning morfologik shakli orqali ifodalanib, to‘ldiruvchi vaziyatini egallaydi. Butunda qism ma’nosi ham aks etganligi, mazmuniy murakkablik kasb etganligi uchun, u ayni paytda, predikat subyektini ham ifodalaydi. Shuning uchun bu munosabatda butunnni bildiruvchi qism chiqish kelishigidagi hamda bosh kelishikdagi otning morfologik shakli orqali ifodalanishi mumkin. Masalan : *Unda har turli ko‘katlardan bor. (A. Qodiriy)*
-Unda har turli ko‘katlar bor.

Yuqoridagi sintaktik qurilmalarning har ikkisi bir mazmuniy munosabatni ifodalab bir mazmuniy paradigamani hosil qilsa ham, lekin ular shakily sintagmatik munosabati bilan bir- biridan farq qiladi. Birida mavjudlik subyeksi bosh kelishikdagi ot orqali ifodalanib, to‘ldiruvchi vaziyatini ifodalaydi.

Vosita kelishilari orqali ifodalangan to‘ldiruvchi bilan hol bir xil morfologik shaklga hamda bir xil sintaktik vaziyatga ega bo‘ladi. Demak, bunday hollarda bu ikki gap bo‘lagi sintaktik jihatdan farq qilmaydi. Ularning farqi faqat sintaktik ma’no jihatdan bo‘ladi. To‘ldiruvchi sintaksis shakli predmetlik ma’nosini, hol sintaktik shakli o‘rin ma’nosini ifodalaydi.

Lekin predmetlik ma’nosi ham invariant ma’no sifatida bir qancha ma’nolarni, ayrim vaqtlarda o‘rin ma’nosini ham o‘zida birlashtiradi. To‘ldiruvchi predmetlik sintaksemasi tarkibida o‘rin semasi bo‘lgan sintaktik ma’no ifodalaganda, to‘ldiruvchi bilan hol sintaktik shakllari ham shakliy, ham mazmuniy jihatdan mo‘tadillashadi. Bu holda har ikki bo‘lakning farqlovchi belgisi kesimning sintaktik ma’nosi sanaladi. Kesimning qanday mazmuniy valentligini to‘ldirayotganligiga qarab belgilanadi. O‘rin valentligini to‘ldirsa hol, narsa qurol valentligini to‘ldirsa to‘ldiruvchi vaziyatida keladi.

Masalan, *Bulbul gulga qo'ndi (qayerga?, nimaga?) -Men gulga ishqibozman (nimaga?)*

Xullas, mazmuniy va shakliy sintagmatik munosabatlar o'zaro bog'liq, bir-birini taqozo qiluvchi munosabatlar bo'lsa ham, lekin ular o'rtasida muvofiqlikning bo'lishi shart emas. Ularning munosabati ziddiyatlidir.

Abdurauf Fitratning “ Nahv” asarini o'rganar ekanmiz II bob yuzasidan quyidagi xulosalarga keldik.

1. Biz tekshirgan davrda eng muhim vazifalardan biri tilimizning nazariy qonun- qoidalarini ishlab chiqish, o'zbek tili grammatikasini yaratish edi. Fitratning ushbu “ Nahv “ asari bu boradagi masalani hal qilishda katta hissa qo'shdi. Bu asar o'sha davrdagi shakllanayotgan o'zbek tilshunosligi fanining aniq qiyofasini shakllantiruvchi asardir.

2. “Nahv” asarida ilgari surilgan ba'zi fikrlar nafaqat o'sha davr, balki hozirgi o'zbek tilshunosligi fani uchun ham ilmiy qimmatga ega . Hozirgi kun uchun ahamiyati yo'qdek tuyulgan qarashlari, tasniflari esa o'zbek tilshunosligi tarixi uchun nihoyatda qimmatlidir. Shulardan kelib chiqib, Abdurauf Fitratni o'zbek tili grammatikasining asoschilaridan biri bo'lgan deyish mumkin . Fitrat bilan birga o'zbek tilining milliy grammatikasini yaratishda Munavvar Qori, Qayum Ramazon, Shorasul Zunnun, G'ozi Olim, Shokirjon Rahimiy va rus tilshunoslari Y.D. Polivanov hamda Batmanov singari olimlarning xizmatlarini alohida ta'kidlash kerak . Ushbu kishilar hozirgi o'zbek tilshunosligi fanining tamal toshini qo'ygan edilar.

3. O'zbek tili Grammatik atamalarining shakllanishida va rivojlanishida Fitratning xizmatlari ulug'dir. Misol : kesim, ega, hol, to'ldirg'uvchi (to'ldiruvchi) kabi ko'plab grammatik atamalarning bugungi tilshunoslikda ham birday qo'llinishi yuqoridagi fikrlarimizning dalilidir. Fitrat tom

ma'noda o'zbek tili grammatik atamalarining ilmiy – nazariy ahamiyatini belgilab bergan olimlardandir.

Mazkur bobda ko'rib chiqilgan masalalarga asoslanib shuni aniq aytish mumkinki, “ Nahv “ kitobi o'zbek tili sintaksisi va qisman punktuatsiya haqida qiziqarli , shu bilan birga muhim ma'lumotlar beruvchi asardir . Bu asar bilan tanishar ekanmiz, Abdurauf Fitrat ko'z oldimizda yetuk sintaksist-olim sifatida gavdalanadi.

3.1. Ta'lim bosqichlari dastur va darsliklarida gap bo'laklari

Gap bo'laklari umumiy o'rta ta'lim maktab darsliklari uchun N.Mahmudov, A.Nurmonov, A.Sobirov, V.Qodirov, Z.Jo'raboyevalarning 5-sinf "Ona tili" darsligida, M. Qodirov, H.Ne'matov, M.Abduraimova, R.Sayfullayevalar muallifligidagi 8-sinf "Ona tili", akademik litseylarning A.Nurmonov, N.Mahmudov, A.Sobirov, Sh. Yusupovalarning 3-bosqich "Hozirgi o'zbek adabiy tili" darsligida keltirilgan.

5-sinf darsligining sintaksis va punktuatsiya qismida 46 soat ajratilgan bo'lib quyidagi mavzular berilgan:

Kesim – gap markazi. Faqat kesimdan iborat gap, ularning qo'llanish o'rinlari. Fe'l kesim va ot kesim. Ega. So'zlarni asosiy va qo'shimchama'no beruvchi qismlarga ajratish. Sodda yig'iq va sodda yoyiq gaplar. Sodda yig'iq gaplarni ko'pbo'lakli gaplarga aylantirish. Ega haqida xulosa chiqarish.

Hol va uning ifodalanishi. Ularni qachon?, qanday?, qaerda?, qanday qilib? kabi so'roqlarga javob bo'ladigan so'zlar bilan kengaytirish, «ega+hol+kesim» qolipli gaplar tuzish, berilgan so'roqlarga javobbo'ladigan so'zlar tanlab, yoyiq gaplar hosil qilish, hol haqida xulosachiqarish.

To'ldiruvchi va uning ifodalanishi. Ularni kimni?, nimani?, kimga?, nimaga?, kim bilan?, nima bilan? kabi so'roqlarga javob bo'ladigan so'zlar bilan kengaytirish, «ega+hol+to'ldiruvchi+kesim» qolipli gaplar hosil qilish, so'roqlarga javob bo'ladigan so'zlar asosida yoyiq gaplartuzish; to'ldiruvchi haqida xulosa chiqarish.

Aniqlovchi va uning ifodalanishi. So'roqlarga javob bo'ladigan so'zlar

tanlab gaplarni kengaytirish; aniqllovchili soʻz birkmalari hosil qilish; bunday birikmalar roʻyxatini mustaqil davom ettirish, matnni oʻqib, ajratilgan soʻzlarni ular bogʻlangan soʻz bilan birga koʻchirish; kuzatishva tahlillar asosida xulosa chiqarish. Sifatlovchi aniqllovchi. Qaratqich aniqllovchi.

5-sinf darsligida gap boʻlaklari oʻquvchilar uchun boshlangʻich tushuncha sifatida beriladi.

8-sinf darsligida gap boʻlaklari quyidagicha ikki qismga ajratib beriladi.

Sodda gap sintaksisi (20 soat)

Sodda gap haqida umumiy maʼlumot. Gapning boʻlaklarga ajratilishi. Kesim va uning ifodalanishi. Feʼl kesim va ot kesim. Sodda kesim va murakkab kesim. Murakkab ot kesimlarning tuzilishi. Kesimning birikmalar va iboralar bilan ifodalanishi. Ot kesim va ega orasida tirening qoʻllanishi. Mustaqil va nomustaqil kesim shakllari. Ega va uning ifodalanishi. Egali va egasiz gaplar. Egasi yashiringan gaplar. Egasiz gaplar. Shaxsi nomaʼlum gap. Atov gaplar. Soʻz-gaplar. Yoyiq atov va soʻz gaplar. Sodda yigʻiq va sodda yoyiq gaplar.

Ikkinchi darajali boʻlaklar (34 soat)

Hol haqida umumiy maʼlumot. Payt holi va oʻrin holi. Ravish holi va darajamiqdor holi. Sabab holi va maqsad holi. Murakkab holli gaplar.

Toʻldiruvchi haqida umumiy maʼlumot. Vositasiz toʻldiruvchi. Vositali toʻldiruvchi. Aniqllovchi haqida umumiy maʼlumot. Sifatlovchi aniqllovchi. Qaratqichli aniqllovchi. Izohlovchi. Gap boʻlaklari tartibi. Gap urgʻusi. Toʻliq va toʻliqsiz gaplar. Gapning uyushiq boʻlaklari haqida maʼlumot. Uyushiq kesim, uyushiq ega, uyushiq hol, uyushiq toʻldiruvchi, uyushiq aniqllovchi. Uyushiq boʻlakli gaplarda umumlashtiruvchi soʻz. Ajratilgan boʻlakli gaplar. Ajratilgan hol, ajratilgan toʻldiruvchi va ajratilgan aniqllovchi, ularda ohang va tinish belgilari.

Mazkur darslik asosan sintaksis qismiga bag‘ishlanganligi uchun gap bo‘laklariga kengroq to‘xtalib, to‘liq ma’lumot beriladi.

Akademik litseyi 3- bosqich uchun mo‘ljallangan “Hozirgi o‘zbek adabiy tili’ darsligida gap bo‘laklari dasturga quyidagicha keltirilgan.

4. Nutqda gapbo‘laklarining o‘rni (16 soat)		
Matnichidagi gaplarning kesimi, egasi, to‘ldiruvchisi, holi va aniqlovchisini belgilash, ularning ifodalanishiga diqqat qilish. Kesimlar uslubiyati. Fe’l kesim va ot kesimlar uslubiyati. Egalarining uslubiy xususiyatlari. Egali va egasiz gaplar uslubiyoti. Kesimningegabilanmoslashuvi . To‘ldiruvchilaruslubiyati(<u>Vat anuchun//Vatan –chun //Vatangajonfidoqilmoq</u>) Vositalito‘ldiruvchilaruslubiyati (<u>ishbilarmonlarbilanuchrashmoq//</u> <u>ishbilarmonlargaduchkelmo</u>	A	"Musiqaning qudrati", "Senisog‘indim", "O‘g‘lim, sengaaytaman!", "Muhammadalayhissalomningvasiyatlari", "Meno‘zbektiliman!" kabimatnlarustidaishlash, ulardaqo‘llanilgangapbo‘laklarigatasnifberishgao‘rgatish. Yuqoridagi matnlar bo‘yichasavollartuzishgao‘rgatish. Teatr va kino taassurotlari asosida fikr yuritish Ma’murjon Uzoqov, KomiljonOtaniyozov, Tavakkal Qodirovkabiyo‘shiqchilariningashulalari dannamunalartinglash. Yuqoridagiqo‘shiqlardanolingantaassurotlarniqog‘izga tushirish. Tilxat yozish Gap bo‘laklarini grammatik o‘yinlar

q) Vositasiz to'ldiruvchilar uslubiyatini o'rganishni o'z ichiga olgan, yurtini kuylamoq) Hollarning uslubiy xususiyatlarini o'rganish, o'rin, payt, sabab, maqsad, darajamiqdor hollari uslubiyati, (O'zbekistonda <u>serquyosho'l kamizda</u> // <u>respublikamizda ham millatlar teng huquqli</u>). Bo'lakning g'oyasi. Aniqlovchilar uslubiyati. Sifatlovchilarning aniqlovchilar uslubiyati (<u>usta// mohir, ishbilarmon// tadbirkor xodim</u>). qaratqichli aniqlovchilar uslubiyati (o'z ukasi// o'zining ukam mening ukam) Qaratqichli aniqlovchilarning belgisi va belgisiz qo'llanilishi (yurtsoyishtaligi yurtning soyishtaligi). Izohlovchi aniqlovchi. Talabalarning gap	asosida o'rganish Tayanch tushunchalarni asoslash Testlar ustida ishlash Maqollarning mazmun mohiyatini izohlash.
--	---

bo‘laklaridan o‘rinli foydalanishga o‘rgatish.		
--	--	--

Akademik litsey hozirgi o‘zbek adabiy tili asosan sintaksis qismiga bag‘ishlangan maktab darsliklaridan farqli ravishda murakkabroq bo‘lganligi sababli har bir mavzu alohida yoritilib, ko‘proq amaliy mashg‘ulotlar asosida berilgan .Unda gap bo‘laklariga quyidagicha tavsif berilgan:

Gap tarkibida tobe bog‘lanib ma’lum so‘roqqa javob bo‘luvchi so‘z yoki so‘zlar birikmasiga gap bo‘lagi deyiladi.

Gapni gap qilib shakllanishida muhim bo‘lgan, uning mazmuniy va grammatik markazi hisoblanuvchi bo‘lak – kesim. Shuning uchun u gapning eng muhim bo‘lagi bosh bo‘lak sanaladi.

Ega kesim ifodalagan belgi, harakat holatning egasi sifatida kesimdan keyingi bo‘lak sanaladi..

To‘ldiruvchi va hol kesim bilan tobe munosabatga kirishib uning ma’nosini izohlab, to‘ldirib keladi. Shuning uchun ular ikkinchi darajali bo‘lak sanaladi.

Aniqlovchi yuqoridagi barcha bo‘laklarga bog‘lanib ularning ma’nosini izohlab keladi. Gapda qaysi bo‘lak bilan munosabatda bo‘lsa, shu bo‘lak bilan birgalikda bitta gap bo‘lagi, birikmali gap bo‘lagi bo‘lib keladi.

Shu tarzda har bir ma’lumotlar mashqlar asosida mustahkamlanadi.

Tayanch soʻzlar lugʻati

Adabiy til - Literary language

Adabiy meʼyor – Literary norm

Anʼanaviy tilshunoslik - Traditional linguistics

Bosh boʻlaklar - The principal terms of the proposal

Vositali obʼekt – the object cosvenny

Vositali toʻldiruvchi - Indirect

Vositasiz toʻldiruvchi - direct object

Anʼanaviytilshunoslik - Traditional linguistics

Boshboʻlaklar - The principal terms of the proposal

Boshgap - Main clause

Gap - Proposal

Gapninggrammatik (sintaktik) tuzilishi - Grammatical (syntactic) sentence structure communication of the sentence

Grammatik - grammatical

Soddagap - A simple sentence — Prostoepredlojenie

Umumiy xulosalar

XX-asr boshlarida Markziy Osiyoda, xususan, Oʻzbekistonda ziyolilar oʻrtasida milliy oʻz-oʻzini anglash hissi kuchaydi. Milliy madaniyatni rivojlantirishga, adabiy til bilan jonli soʻzlashuv tilini yaqinlashtirishga eʼtibor ortdi .Ana shu harakat tufayli tilshunoslik masalalariga alohida ahamiyat berildi.

Oʻzbek tilshunosligi tarixida Abdurauf Fitrat, Ashurali Zohiriy, Elbeklarning alohida oʻrni bor. Koʻrib oʻtganimizdek, bu olimlar oʻzbek tili milliy

grammatikasiga asos solib, uning rivojlanishida katta hissa qo‘shishgan. Ularning ilmiy merosini o‘rganar ekanmiz va tadqiqot ishimizning yoritilishidan kelib chiqqan holda quyidagilarni asos qilib belgilaymiz.

1. XX asrning 20- yillarida yaratilgan grammatik asarlar orqali o‘zbek tilshunosligining rivojlanish holatini o‘rganish mumkin.
2. 20-yillarda yaratilgan tilshunoslikka doir asarlar o‘z davrining lingvistik ehtiyojini qondirishga xizmat qilgan .
3. Ashurali Zohiriy o‘zbek tilshunosligida birinchi bo‘lib “Imlo “ darsligini yaratdi. Tilshunoslikda atamalarning rivojlanishiga katta hissa qo‘shdi. Birinchilardan lug‘atshunoslikka asos solib, “Ruscha-o‘zbekcha mukammal lug‘at “ yaratdi.
4. Elbekning “Yozuv yo‘llari” asari tilshunoslikda grammatikaning shakllanishida muhim manba bo‘lib xizmat qildi. Elbek shakldosh va ma’nodosh so‘zlarni o‘rganib, “O‘zbekcha shakldosh so‘zlar lug‘ati” va “O‘zbekcha ma’nodosh so‘zlar lug‘ati “ nomli kitoblarni tuzadi.
5. Abdurauf Fitrat til ilmi bilan jiddiy shug‘ullangan va bu sohada katta ishlar qilgan olimdir. Uning tilshunoslik merosida o‘zbek tilining ilmiy-nazariy masalalariga bag‘ishlangan bir qancha asarlar bor . “Tilimiz “, “Muqaddimatul-adab “, “ Imlo konfrensiyasi munosabati ila “, “Sarf”, “Nahv “ va shu kabi asarlarida bevosita tilshunoslik masalalari yoritilgan.
6. Fitratning ushbu “ Nahv “ asari bu boradagi masalani hal qilishda katta hissa qo‘shdi. Bu asar o‘sha davrdagi shakllanayotgan o‘zbek tilshunosligi fanining aniq qiyofasini shakllantiruvchi asardir.
7. Fitrat butun umri davomida til sofliги uchun qayg‘urdi, milliy til va milliy yozuvimiz bo‘lishi uchun tinmay kurashdi. Fitrat purizm til tozaligi uchun kurashar ekan, tillarning o‘zaro aloqasini inkor qilmaydi.

8. Fitrat tillarning rivojlanish yo'llarini to'g'ri ko'rsatdi. O'zbek tilining ilmiy-nazariy qonun-qoidalarini yaratar ekan, birinchidan, tilning xos tabiatini hisobga olgan bo'lsa, ikkinchidan, o'zbek tilini turkiy tillar qobig'ida o'rgangan.
9. Fitratning "Nahv" asari hozirgi gap bo'laklarining shakllanishida asosiy poydevor bo'lib xizmat qildi. Garchi aniqlovchi gap bo'lagi yoritilmagan bo'lsa-da, boshqa bo'laklar izohlanib, misollar asosida tushuntiriladi. Kesim gapning markaziy bo'lagi ekanligi, gapda asosiy fikr, hukmni ifodalashi, "gapning bir cho'qqili nazariyasiga Fitratning "Nahv" asarida asos solingan.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat - yengilmas kuch. -Toshkent: O'zbekiston, 2008.
2. Barkamol avlod - O'zbekiston taraqqiyotining poydevori.- Toshkent.:Sharq,1998.
3. Karimov I.A. Biz kelajagimizni o'z qo'limiz bilan quramiz.- Toshkent.:O'zbekiston, 1999.
4. Karimov I.A. Yangicha fikrlash davr talabi. Ko'p jildlik.- T: O'zbekiston,1997.
5. Abdullayev A. Abdullayev H. Hozirgi o'zbek adabiy tilida gap bo'laklarining ifodalanishiga doir./ Buxoro 12-konf materiallari/- Buxoro,1967.
6. Akramov Sh. O'zbek tilining gap qurilishida to'ldiruvchi va hol. Nomz.diss. avtoref.-Toshkent, 1997.
7. Aliyev A. Nazarov K. Ozbek tili ma'lumotnomasi. - Toshkent, 1992
8. Ashirboyev S. O'zbek tilshunosligining dolzarb masalalari. Abdurauf Fitratning uyushiq bo'lak talqini.-T ., 2011.
9. Azizov O. Tilshunoslikka kirish.-Toshkent: O'qituvchi, 1996.
10. Bobomurodova Sh. O'zbek tilshunosligi rivojida Elbekning roli. Filol.fanlari nomzodi...diss. -Toshkent,2002.
11. Boltaboyev H. Fitratning ilmiy merosi.- Toshkent: Fan, 1996.
12. Elbek. Bitik yo'llari .- Toshkent, 1919.
13. Elbek. Yozuv yo'llari.- Toshkent, 1921.

14. Elbek. Lugʻat va atamalar// Turkiston, 1923.
15. Elbek .Oʻzbekcha shakldosh soʻzlar lugʻati.- Toshkent- Samarqand, 1924.
16. Fitrat A. Tanlangan asarlar. 4-jild.- Toshkent, 2009.
17. Fitrat A. Nahv . Samarqand – Toshkent, 1930.
18. Fitrat A. Tilimiz. “Ishtirokiyon ” 1919.
19. Fitrat A. Oʻzbekcha til saboqligi//Qizil Oʻzbekiston, 1926.
20. Fitrat A. Imlo konfrensiyasi munosabati ila //Maorif va oʻqituvchi ,1926.
21. Fitrat A. Adabiyot qoidalari//Fan va turmush, 1989.
22. Hozirgi oʻzbek adabiy tili. II t.- Toshkent: Fan, 1966.
23. Mahmudov N. Nurmonov A. Oʻzbek tilining nazariy grammatikasi. - Toshkent: Oʻqituvchi, 1995.
24. Mahmudov N. Kesimning gapdagimaqomi. // Oʻzbek tili va adabiyoti.- Toshkent, 2009.
25. Mahmudov N. va boshqalar . Oʻzbek tilining mazmuniy sintaksisi. - Toshkent,1991.
26. Mahmudov N. Oʻzbek tilida nofunktsional toʻldiruvchi.// Oʻzbek tili va adabiyoti.1986.
27. Mahmudov N. Oʻzbek tilshunosligi taraqqiyoti // Oʻzbek tili va adabiyoti jurnali. 2001.
28. Munavvar Qori va b. Oʻzbekcha til saboqligʻi. -Toshkent. 1925.
29. Nurmonov A. Oʻzbek tilshunosligi tarixi.-Toshkent:Akademnashr,2012.

30. Nurmonov. A. Gap haqida sintaktik nazariyalar.-Toshkent,1988.
31. Qurbonova M. Abdurauf Fitrat va ozbek tilshunosligi. -Toshkent: Universitet. 1997.
32. Qurbonova M. Fitrat – tilshunos .- Toshkent, 1996.
33. Qurbonova M. Fitratning tilshunoslik merosi . Filol.fanlari nomzodi...diss.-Toshkent, 1993.
34. Qutlimurodova M. O‘zbek tilshunosligi tarixidan. //O‘zbek tili va adabiyoti. 1990.
35. Rasulov I. Hozirgi o‘zbek adabiy tilida bir sostavli gaplar.- Toshkent, 1974.
- 36.Tog‘ayev.T.M. Ashurali Zohiriy va uning tilshunoslik merosi :Filol.fanlari nomzodi ...diss. – Toshkent, 2002.
37. To‘ychiboyev B. Fitrat –tilshunos .-Toshkent, 1995.
38. Tursunov U, O‘rinboyev B, Aliyev A. O‘zbek adabiy tili tarixi.- Toshkent: O‘qituvchi. 1995.
38. Zohiriy A. Ruscha – o‘zbekcha mukammal lug‘at. -Samarqand-Toshkent : O‘zbekiston davlat nashriyoti, 1928.
39. Zohiriy A. Ona tili// Sadoyi Farg‘ona .-1914.
40. Zohiriy A . Til va imlo masalasi // Qizil O‘zbekiston.-1929.
41. Zohiriy A. Ozbeklar// Farg‘ona. – 1926.
42. Zohiriy A. O‘tkanlarga bir qarash. Imlo to‘g‘risida// Farg‘ona .-1923.

43. Zunun Sh. Til qoidalari. Samarqand-Toshkent, 1929.

44. Gʻulomov A, Asqarova M. Hozirgi oʻzbek adabiy tili.- Toshkent: Oʻqituvchi, 1987

45. Gʻulomov A. Sodda gap .- Toshkent, 1995.

46. [http://www .edu.uz/](http://www.edu.uz/)

47. [http:// ziyo. edu.uz/](http://ziyo.edu.uz/)

48. [http: // google . uz/](http://google.uz/)

Bitiruv malakaviy ishiga berilgan “O‘zbek tilshunosligi” kafedrası

XULOSASI

Talaba Sobirova Dilnozaning prof.R.Yunusov rahbarligi ostidagi **“O‘zbek tilida subyektiv modallikning ifodalanishi”** mavzusidagi bitiruv malakaviy ishi ko‘rib chiqildi va bu ish O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta‘lim vazirligining 2010-yil 9-iyundagi 225-sonli buyrug‘i bilan “Oliy o‘quv yurtlarida bakalavr bitiruv malakaviy ishini bajarishga qo‘yiladigan talablar”ga to‘liq javob beradi.

Davlat Attestatsion Komissiyasida ushbu ish himoyaga kiritilishi mumkin.

Asos: “O‘zbek tilshunosligi” kafedrasining 2013 yil 8 maydagi 18-son bayonnomasi

Kafedra mudiri:

M. Saparniyazova

«8» may 2013 yil

BITIRUV MALAKAVIY ISHI

MAVZU: O‘zbek tilida subyektiv modallikning ifodalanishi

DAK qarori:

5141100 - O‘zbek tili va adabiyoti yo‘nalishi 401-guruh talabasi Sobirova Dilnozaning “O‘zbek tilida subyektiv modallikning ifodalanishi” mavzusidagi

Bitiruv malakaviy ishi «_____» ga baholansin.

«_____» _____ 2013 yil

DAK raisi:

N.Mahmudov

DAK kotibi:

F. Azimova

